

**O‘ZBEKISTON RESPUBLIKASI AXBOROT TEXNOLOGIYALARI VA
KOMMUNIKATSIYALARINI RIVOJLANTIRISH VAZIRLIGI**

**MUHAMMAD AL-XORAZMIY NOMIDAGI TOSHKENT AXBOROT
TEXNOLOGIYALARI UNIVERSITETI SAMARQAND FILIALI
TELEKOMMUNIKATSIYA TEXNOLOGIYALARI
VA KASB TA’LIMI FAKULTETI**

«AXBOROT-TA’LIM TEXNOLOGIYALARI» KAFEDRASI

5350400- AKT sohasida kasb ta’limi bakalavr akademik
darajasini olish uchun

“Himoyaga ruxsat”

Kafedra mudiri

_____ kat.o‘q.Yakubjanova D.K.

2019 yil “__” _____

**VEB DASTURLASHNI ONLAYN PLATFORMALARDAN
FOYDALANIB O‘RGANISH METODIKASI**

BITIRUV MALAKAVIY ISHI

Bitiruvchi: _____ Yoqubov Sh.

Ilmiy rahbar: _____ Djumayev S.

Taqrizchi: _____ Rajabov N.

HFX maslahatchi: _____ Kurbaniyazov A.

S A M A R Q A N D – 2019

MUNDARIJA

	KIRISH	3
I bob	TA'LIMDA ONLAYN O'RGATUVCHI PLATFORMALARNING ROLI	
1	An'anaviy va elektron ta'limning, afzallik va kamchiliklar...	5
2	Ta'lim jarayoni uchun elektron resurslarning ahamiyati...	7
3	Bugungi kunda mavjud bo'lgan onlayn o'qituvchi platformalar.....	9
II bob	ZAMONAVIY WEB TEXNOLOGIYALAR VA VOSITALAR	
1	Java Script web dasturlash tili imkoniyatlari.....	20
2	PHP da web sahifalarni dinamik shaklda yaratish.....	31
3	HTML 5 tilida qo'shilgan yangi imkoniyatlar	33
III bob	ONLINE PLATFORMALARDAN FOYDALANISH METODIKASI	
1	Sololearn platformasining imkoniyatlari.....	43
2	W3schools platformasining imkoniyatlari	46
3	Kompyuterda texnika xavfsizligiga rioya qilish qoidalar.....	51
	XULOSA	59
	FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR	60
	ILOVA	62

KIRISH

Ishning dolzarbligi. Bugungi kunda ilm-fan jadal taraqqiy etayotgan, zamonaviy axborot-kommunikasiya vositalari keng joriy etilgan jamiyatda barcha fan sohalarida bilimlarning tez yangilanib borishi, ta'lim oluvchilar oldiga ularni tez va sifatli egallash bilan bir qatorda, muntazam va mustaqil ravishda bilimlarni egallash vazifasini qo'yimoqda. Shuning uchun milliy istiqlol g'oyasiga sodiq, yetarli intellektual salohiyatga ega, ilm-fanning zamonaviy yutuqlari asosida mustaqil fikr va mushohada yurita oladigan shaxslarni tarbiyalash hamda raqobatbardosh, yuqori malakali kadrlarni tayyorlash masalasi elektron o'quv-uslubiy majmualarining yangi avlodini yaratishni talab qilmoqda.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi. Ayni vaqtda bularning barchasi zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini tadbiq etish bo'yicha kelgusi yillarda amalga oshirishimiz zarur bo'lgan keng ko'lamli chora-tadbirlar tizimidagi dastlabki qadamlar bo'lib, bu ishlarni izchil davom ettirishimiz lozim.

Ishning maqsadi. Bitiruv malakaviy ishida davlat ta'lim standarti va fan dasturida belgilangan o'quvchilar tomonidan egallanishi lozim bo'lgan bilim, ko'nikma, malaka va kompetensiyalarni shakllantirishni, o'quv jarayonini kompleks loyihalash asosida kafolatlangan natijalarni olishni, mustaqil bilim olish va o'rganishni hamda nazoratni amalga oshirishni ta'minlaydigan, o'quvchining ijodiy qobiliyatlarini rivojlantirishga yo'naltirilgan o'quv –uslubiy manbalar, didaktik vositalar va materiallar, elektron ta'lim resurslarini o'z ichiga olgan va hozirda zamonaviy texnologiyalar asosida yaratilgan, web dasturlashni online

rejimda o'rganishga mo'ljallanagn o'qituvchi platformalardan foydalanib o'rganish metodikasini ishlab chiqish masalasi ko'rilgan.

Bitiruv malakaviy ishning hajmi va tuzilishi. Ishning matni kompyuterda yozilgan bo'lib, uning strukturasi kirish, 3 ta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilova tashkil qiladi.

Birinchi bobda ta'limda onlayn o'rgatuvchi platformalarning roliga bag'ishlangan bo'lib, unda an'anaviy va elektron ta'limning, afzallik va kamchiliklar, ta'lim jarayoni uchun elektron resrurslarning ahamiyati, bugungi kunda mavjud bo'lgan onlayn o'qituvchi platformalar keltirilgan.

Ikkinchi bobda zamonaviy web texnologiyalar va vositalar keltirilgan bo'lib, unda Java Script web dasturlash tili imkoniyatlari, PHP da web sahifalarni dinamik shakilda yaratish, HTML 5 tilida qo'shilgan yangi imkoniyatlar keltirilgan.

Uchinchi bobda online platformalardan foydalanish metodikasi va mavjud platformalarning solishtirma tahlili keltirilgan.

Xulosa qismida bitiruv malakaviy ishida olingan asosiy natijalar va takliflar keltirilgan.

Adabiyotlar ro'yxati qismida bitiruv malakaviy ishini bajarishda foydalanilgan asosiy adabiyotlar ro'yxati keltirilgan.

Ilovada o'qituvchi platformalardan foydalanish tavsifi keltirilgan.

I bob. TA'LIMDA ONLAYN O'RGATUVCHI PLATFORMALARNING ROLI

1. An'anaviy va elektron ta'limning, afzallik va kamchiliklar

Bugungi kundagi jamiyatning rivojlanish suratini hisobga olib ta'lim jarayonini izchillashtirishga harakat qilar ekanmiz bevosita zamonaviy axborot texnologiyalaridan foydalanishga to'g'ri keladi.

Ta'lim oluvchilar uchun mustaqil bilim olish imkoniyatlarini oshirish, ta'limning elektron axborot resurslarini shakllantirish va rivojlantirish uchun zarur sharoitlarni yaratish ta'lim mazmunini takomillashtirishning zaruriy shartlaridan biri sanaladi. Zamonaviy ta'lim tizimining asosini sifatli va yuqori texnologiyali muhit tashkil etadi. Uning yaratilishi va rivojlanishi texnik jihatdan murakkab, ammo bunday muhit ta'lim tizimini takomillashtirishga, ta'lim jarayoniga axborot va kommunikasiya texnologiyalarini joriy etishga xizmat qiladi.

Hozirgi vaqtda ta'lim jarayonini axborotlashtirishda asosiy diqqat samarali multimediali o'quv kurslari ishlab chiqarishga qaratilmoqda. Xalqaro tajribalarga tayangan holda tekstografik elektron mahsulotlar o'rniga interaktiv, multimedia manbalariga boy elektron resurs qabul qilinmoqda.

Axborotlashtirish orqali ta'lim samarasi va sifatini oshirish uchun yangi darsliklar bir qancha innovasion sifatlarga ega bo'lishi kerak, shuning uchun elektron resurs sifatini tahlil qilish muhim ahamiyatga ega[6].

Har qanday ta'lim manbasi kabi elektron resurs ham sifatlari majmuidan kelib chiqqan holda baholanishi lozim. Bunda baholashni an'anaviy va innovasion turlarga bo'lish muhimdir.

- Davlat ta'lim standartlari, ta'limning namunaviy va ishchi dasturlariga mos kelishi;
- Taqdim etilayotgan ma'lumotlar ilmiy asoslanganligi;
- Yagona metodikaga mos kelishi («osondan qiyinga qarab borishi», materiallarni taqdim etishda ketma-ketlikka rioya etilishi);
- Dalillarga oid xatolar, axloq qoidalariga xilof, etikaga to'g'ri kelmaydigan tarkibiy qismlarga ega bo'lmasligi; va h.k

Elektron resursni baholashda an'anaviy usullar albatta ishlatiladi, bu usullar bilan baholash jarayoni yaxshi ishlab chiqilgan.

Shuni aytib o'tish kerakki, kitob faqat axborot olishni ta'minlaydi. Elektron o'quv kursi esa olinayotgan axborotning tasavvur orqali xotirada saqlanishi bilan farq qiladi. Hozirgi kunda insonning kun bo'yi qabul qiladigan axborotlari shunchalik ko'pki, ularni saqlab qolish juda mushkul. Shu sababli axborotni tasavvur qilgan holda qabul qilish xotirada saqlanishini osonlashtiradi. Elektron o'quv kursi esa inson xotirasida axborotlarni yaxshi saqlanuvchi, vizual ko'rinishda uzatadi. Bir qancha soha uchun multimediali o'quv kursi ishlab chiqilgan. Ularning sifati pastligi, muayyan tartib – qoidaga asoslanmaganligi sababli foydalanish keng miqyosda emas yoki tezda yaroqsiz holatga keladi. Elektron o'quv kurslarini tayyorlashda ulardan foydalanish davomiyligini hisobga olish zarur.

Zamonaviy axborot-kommunikasiya texnologiyalarini keng joriy etmasdan ta'lim tizimini taraqqiy ettirib bo'lmaydi. Bu borada zamonaviy oliy ta'lim tizimi axborot-kommunikasiya texnologiyalarini bo'lajak mutaxassislar kasbiy faoliyatining muhim vositasi sifatida qo'llash bo'yicha vazifalarni ilgari surmoqda. Ta'lim jarayoni samaradorligi va sifatini oshirish maqsadida axborot kommunikatsion texnologiyalaridan foydalanishning afzal va qulay imkoniyatlarni shart-sharoitlarini yaratish va o'quv jarayoni avtomatlashtiruvchi dasturiy vositalar yaratish, multimediali o'quv qo'llanmali, metodik qo'llanmalar bilan ta'minlash vazifalari muhim ahamiyat kasb etadi.

Pedagog va ta'lim oluvchilarga axborotlarni qidirish va foydalanishda salmoqli erkinlik taqdim qiladigan elektron resurslarni tatbiq qilish natijasida muayyan qiyinchiliklar va sa'lbiy jihatlar paydo bo'lishi mumkin. Bunda pedagog va ta'lim oluvchilar zamonaviy telekommunikasiya vositalari taqdim qiladigan erkinlikdan ko'pincha foydalana olmaydi. Ko'plab chigal va murakkab taqdim qilish usullari o'quvchini o'rganayotgan materialdan chalg'itishiga sabab bo'lishi mumkin. Axborotning chiziqsiz strukturasi ta'lim

oluvchining taqdim qilingan ssilkalarni kuzatib borishga qiziqtirib , bilmasdan turib ishlatishda , o'quv materialini asosiy mazmunidan chalg'itishi mumkin.

Ba'zi bir elektron ma'lumotnomalar , ensiklopedialar, internet-portallar kabi elektron resurslar taqdim qilgan axborotlarning juda katta xajmi ham ta'lim jarayonida e'tiborni chalg'itishi mumkin. Insonning qisqa muddatli xotirasi juda ham chegaralangan imkoniyatlarni beradi. O'quvchiga bir vaqtda turli tipda axborotlar ko'rsatilganda u boshqa axborotlarni kuzatib borish uchun muhim axborotlardan o'tkazib yuborib, bir tipdagi axborotdan chalg'ish holatini paydo qiladi.

Juda ko'p holatlarda elektron resurslardan foydalanish oldindan ta'lim natijasi haqida aytib o'tilib, o'quvchini o'z qo'li bilan amaliy tajriba qilib ko'rish imkoniyatlaridan mahrum qiladi[5].

2. Ta'lim jarayonida elektron resurslarning ahamiyati

Elektron o'quv qo'llanma (EO'Q) – birinchi navbatda yangi o'quv materialini namoyish etish, an'anaviy bosma chop etilgan qo'llanmalarni to'ldiruvchi, individual va individuallashtirgan tartibda ta'lim olishni ta'minlovchi va olingan bilim va ko'nikmalarni sinovdan o'tkazuvchi kompyuterli-informasion (ma'lumotlar hamda bilimlar bazasi ko'rinishida) dasturiy vositasidir[3].

Elektron o'quv uslubiy majmua(EO'UM) – fan bo'yicha davlat ta'lim standartlariga javob beradigan hamda, o'quvchilarga mustaqil ta'lim olishda yuqori samaradorlikni ta'minlaydigan, multimediali axborotlardan foydalandigan elektron kurs hisoblanadi. Uning mazmunini fan bo'yicha o'quv uslubiy majmuaning barcha komponentalari qamrab olishi shart.

Elektron o'quv uslubiy majmualari va mustaqil ta'lim tizimida qo'shimcha yordamchi vosita sifatida qo'llanilishi mumkin, chunki u

- o'quv materiallarini bosma o'quv materialiga nisbatan: induktiv yondashuv, eshitish va hissiy xotirasiga va shu kabilarga tushuncha yetkazishda qulayliklar tug'diradi;

- o'quvchining talablariga asosan, uning tayyorgarlik darajasiga, intellektual imkoniyatlariga va qiziqishlariga qarab ko'nikma xosil qilishiga imkoniyat yaratadi;

- soha tushunchasiga e'tiborni jamlab, ko'proq masala qarash va yechish imkoniyatlarini yaratib bergani xolda, juda ham katta hisoblar va qayta ishlovlardan ozod qiladi;

- ish jarayonining barcha bosqichlarida o'z-o'zini tekshirish imkonini beradi;

- ishni chiroyli va sarishta qilib o'qituvchiga fayl yoki bosmadan chiqarib berish imkonini beradi;

- judayam bardoshli ustoz bo'lib, foydalanuvchilarning oxiri yo'q savollari bilan ishlashi, u hohlaganicha takroriy marotaba o'quv materiallarini ko'rsatishi mumkin.

EO'UM talaba uchun katta ahamiyatga ega, chunki u tizimdan fan sohasi bo'yicha yirik va keng qamrovli ma'lumot olishi mumkin.

EO'UM amaliy auditoriya mashg'ulotlari uchun ham qo'llashga qulaydir, chunki u:

- ko'p sonli masalalarni yechishda kompyuterdan foydalanish imkonini berib, olingan yechim tahlili va grafik interpretasiyasi uchun ketadigan vaqtni tejaydi;

- o'qituvchi uchun darsni mustaqil dars formasiga aylantirishga imkon beradi, shu bilan birga o'qituvchi va konsultant va rahbar sifatida qoladi;

- o'qituvchi uchun o'quvchilarning bilim va ko'nikmalarini kompyuter tizimi orqali aniqlash va baholash imkonini beradi.

EO'UM lar, o'quv jarayonining yangi vositasi sifatida ochiq yoki qisman ochiq tizim bo'lishi mumkin. Ochiq va qisman ochiq tushunchasi orqali bu yerda EO'UM larning tuzilishi va tarkibiga o'zgartirish kiritish mumkinligi yoki mumkin emasligi nazarda tutilgan.

Interaktiv rejimda ishlay oluvchi dasturiy tizim EO'UM larni qurish, avvalo, mavjud masofaviy o'quv qo'llanmalar qurish usullarini tahlil qilish va EO'UM

modellarini qurishni ta'minlovchi tamoyil va kategoriyalarni ishlab chiqarishni talab qiladi.

Dasturiy tizim qurishdagi muammo, EO'UM modelini qurishda murakkab arxitektura, yechimlarni qo'llash, foydalanuvchi bilan muloqotni shakllantirish, shu qatorda dastur kodi hajmining oshib borishi hisoblanadi. Bugungi kunda ixtiyoriy murakkab jarayonlarni yaratishda uning tizimli modelini qurmasdan hamda vizual modellashtirish usul va vositalaridan foydalanmasdan iloji yo'q.

EO'UM modelini turli nuqtai nazarlardan kelib chiqqan holda bayon etishi kerak. Bu EO'UM ning to'la modeli bir qancha alohida har tomonni aks ettiruvchi qismlardan tashkil topishi lozim. Tashkil qiluvchi modelni tanlash muammoga yondashuv va qaror qabul qilishga bog'liq[5].

3. Bugungi kunda mavjud bo'lgan onlayn o'qituvchi platformalar

O'tgan asrning 90-yillariga kelib masofali ta'limda tarmoqli ochiq unuversitetlar hali yuzaga kelmagandi. Shuning uchun ham ochiq universitetlarni qidiruv tizimidan izlaganimizda bizga yaqin o'tmishdagi ma'lumotlarni va MDH davlatlarining tarkibidagi, asosan Rossiya davlatining ochiq universitetlari ROU haqidagi ma'lumotlarni taqdim etadi. Qidruv tizimidagi "masofali ta'lim portali" so'roviga asosan Rossiyaning ta'lim portallari haqidagi ma'lumotlarni va ayrim Xorijiy davlatlarning masofali ta'limdagi saytlariga ilovalar kolleksiyasini bizga taqdim etadi. Masalan, "ta'lim portali" sifatida <http://www.aboutstudy.ru> portalini oladigan bo'lsak, unga quyidagicha ta'rif berish mumkin "Ta'lim portal, Rossiyada va xorijda, foydali ma'lumotlarni va xorijiy ta'lim haqidagi ma'lumotlari oladigan hamda referatlar qidiradigan ta'lim sayti hisoblanadi". Albatta foydalanuvchilarga bu xizmatlarning oxirgisi hozirgi kunda muhim hisoblanadi. Shuning uchun ham bu portalni to'liq ta'lim portal deyish noto'g'ri boladi.

<http://ypok.ru> sayti yaratuvchilari birinchi navbatda foydalanuvchilarni ham o'qituvchilarni ham e'tiborini saytda qandaydir mavzuda masofali ta'lim olishga qaratdi. Buning natijasida bu saytni ta'lim olishdagi pullik xizmatlari ko'rsatishga olib keldi. Buning bur nehca afzallik va kamchili tomonlari bor. Ya'ni ta'lim olishda foydalanuvchilardan tushgan mabllag' evaziga sayt muqim yangilanib

takomillashib boradi, va aksincha saytning pullik xizmatlaridan talabalarning foydalanishi kam bo'lishi uning boshqa raqobatchilari olidda reytingi keskin tushib ketishiga olib keladi[10].

Bizga xorijiy davlatlarning misolida Rossiya davlatining masofaviy ta'limiga e'tibor qaratamiz. Rossiyalik ta'lim sohasida ish olib boruvchi olimlar "Rossiya ta'lim portal qanday bo'lishi kerak ?" degan savolga bir necha variantdagi saytlarni ishlab chiqdilar va "Rossiya federatsiyasi ta'lim portal o'zida juda ko'plab kerakli ma'lumotlarni saqlashi, maktabda, kollejd va litseyda hamda oliy o'quv yurtlarida o'qitiladigan ma'lumotlar bu poralda to'liq o'z aksini topishi shart degan xulosaga kelishdi". Buning natijasini ular <http://www.ed.gov.ru> Rossiyaning ta'lim vazirligi portal misolida ko'rishdi. Bu portalda ta'limning huquqiy asoslaridan tortib hozirgi davrgacha bo'lgan ta'lim yutuqlarigacha ma'lumotlar joy olgan. Bundan tashqari bu portalda eng muhim ikki narsa joylashgan, bular har bir foydalanuvchiga alohida yo'naltirilganlik hamda boshqa ta'lim resurslariga havolalar. Bundan tashqari Rossiyalik mutaxassislar davlatning bosh ta'lim portalida vazirlik grifi qo'yilgan o'quv adabiyotlari PDF formatida bo'lishi talab etiladi va turli metodik qo'llanma va materiallar to'g'ridan-to'g'ri oortalning oz'ida emas tegisgli ta'lim muassasasining portal joylashgan bo'lishi, ta'lim portal esa ularning qidirib topishga yo'l ko'rsatishi kerak bo'ladi. Hozirgi kunda bizning ta'lim muassasalarimiz erishayotgan korporativ tarmoqlarning yaratilishi ham Rossiyalik ta'lim muassasalarida mavjud. Va bular o'zra davlat miqyosida birlashtirilgan. Hozirgi kunga kelib xorijiy davlatlar bilan bir qatorda Rossiyada ham ko'pgina ta'lim portallari faol ishlamoqda, ammo bularning hech birini yagona ta'lim portal deb bo'lmaydi. Har bir yaratilgan ta'lim portallari o'zinign alohida qulayliklari bilan ajralib turadi. Masofali ochiq universitetlar qatorida hozirda eng ommaviy si hisoblanayotgan INTUIT.RU portalini aytishimiz mumkin. Bu portal milliy ochiq universitet sifatida faoliyat olib bormoqda va foydalanuvchilrga rus tilida xizmatlarni taklif etadi. Portalning xorijiy davlatlardagi eng so'nggi texnologiyalarni ishlab chiqaruvchi firma va korporatsiyalar bilan hamkorligi mavjuddir. Bu portalga a'zo bo'lgan

foydalanuvchi turli takliflar asosida nafaqat rus balki boshqa tillarda ham ta'lim olishi va ta'lim yoki ish faoliyatini davom ettirishi uchun hamkor bo'lgan tashkilotlar bilan aloqa o'rnatishi ham mukkin bo'ladi. Bu portalning umumiy ko'rinishi quyidagicha:

www.intuit.ru

ИНТУИТ
НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОТКРЫТЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

Электронный адрес: Пароль: Зайти как гость
☒ Запомнить меня

Учитесь вместе с друзьями!
Бесплатное дистанционное обучение в Национальном Открытом Университете «ИНТУИТ» - это удобный способ получения знаний, которые помогут вам получить новую работу и занять более высокую должность.
Программы дистанционного обучения в НОУ «ИНТУИТ»:
▶ Высшее образование
▶ Второе высшее образование
▶ Профессиональная переподготовка
▶ Повышение квалификации
▶ Курсы (всего: 555)
▶ Видеокурсы (всего: 179)
▶ Сертификации (всего: 57)
▶ Академия Intel (всего: 24)
▶ Академия Майкрософт (всего: 101)

27

Чтобы узнать больше о проекте, посмотрите видео:
Дистанционное обучение
Высшее образование
Бесплатное обучение
Буферизация...

Регистрируйтесь! Зачем это нужно?

Фамилия:
Имя:
Отчество:
Электронный адрес:
Пароль:
Пол: Выберите пол:
Страна: Выберите страну:
Место жительства:
Дата рождения: День: Месяц: Год:
☐ Принимаю «Кодекс чести студента НОУ «ИНТУИТ». Нажимая кнопку «Регистрация», Вы подтверждаете, что согласились с нашими «Пользовательскими соглашениями» и принимаете «Политику конфиденциальности».

1-rasm. INTUIT.RU-milliy ochiq universiteti

Ko'rib turganingizdek bu portaldan ro'yxatdan o'tganingizdagina to'liq imkoniyalaridan foydalanish uchun huquqqa ega bo'lasiz, aks holda faqat mehmon sifatida portalga tashrif buyurib kerakli ma'lumotlarni o'qish imkoniyatiga ega bo'lasiz. Qolgan xizmatlar esa siz uchun chegaralangan bo'ladi. Ro'yxatdan o'tish quyidagi oynada keltirilgan bo'lib, unda albatta sizning elektron pochtangiz mavjud bo'lishi va undan foydalan olish bilimiga ehga bo'lishingiz talab etiladi. Qolgan bo'limlarda ro'yxatdan o'tishingiz uchun sizning ma'lmotingiz va ta'lim olayotgan sohangiz, bilim yurtigiz hamda sizga kerakli bo'lgan kurslar haqida ma'lumot berishingiz kerak bo'ladi.

Учитесь вместе с друзьями!

Бесплатное дистанционное обучение в Национальном Открытом Университете «ИНТУИТ» - это удобный способ получения знаний, которые помогут вам получить новую работу и занять более высокую должность.

Программы дистанционного обучения в НОУ «ИНТУИТ»:

- Высшее образование
- Второе высшее образование
- Профессиональная переподготовка
- Повышение квалификации
- Курсы (всего: 555)
- Видеокурсы (всего: 179)
- Сертификации (всего: 57)
- Академия Intel (всего: 24)
- Академия Майкрософт (всего: 101)

Регистрируйтесь! Зачем это нужно?

Фамилия: Norqozozqov

Имя: Sobit

Отчество: Ilhomiddin o'g'li

Электронный адрес: sobitnorqozozqov@inbox.uz

Пароль:

Пол: Мужской

Страна: Узбекистан

Место жительства: Самарканд

Дата рождения: 15 мая 1991

☐ Принимаю «Кодекс чести студента НОУ «ИНТУИТ».

Нажимая кнопку «Регистрация», Вы подтверждаете, что согласились с нашим «Пользовательским соглашением» и принимаете «Политику конфиденциальности».

Регистрация

2-rasm. INTUIT.RUdan ro'yxatdan o'tish

Bu oyna ro'yxatdan o'tish oynasi hisoblanadi. Siz muvaffaqiyatli ro'yxatdan o'tgan bo'lsangiz, siz ko'rsatgan elektron pochtaga bu haqda xabar keladi va xabarda ko'rsatilgan manzil bo'yicha portal ilk bora tashrif buyurishingiz mumkin. Keyingi tashriflarda esa pochtagizning login va parolidan foydalanishingiz mumkin bo'ladi [www.intuit.ru].

ИНТУИТ НАЦИОНАЛЬНЫЙ ОТКРЫТЫЙ УНИВЕРСИТЕТ

Добро пожаловать, **Sobit Ilhomiddin o'g'li** (Выйти)

Сообщить об ошибке >> Отключить рекламу >>

Моя страница **Моя учеба** **Я обучаю** **Я общаюсь** **Личный счет** **Мои заказы**

ГОРИЗОНТ СОБЫТИЙ **ЗАЧЕТКА** **ДИПЛОМЫ**

Мысли | Задать вопрос

Поделитесь умными мыслями...

Опубликовать

Ректор НОУ ИНТУИТ

Уважаемый Sobit Ilhomiddin o'g'li! Коллектив Национального Открытого Университета "ИНТУИТ" приветствует Вас. Вы решили учиться – и это правильно! Мы надеемся, что Вы найдете у нас много полезных учебных материалов. Желаем успехов в учебе! Да, кстати, на Ваш «Личный счет» переведена небольшая сумма :-)

Пожалуйста, заполните дополнительную информацию о себе, это позволит Вам более эффективно использовать сервисы проекта.

Добавьте фотографию

Укажите образование

Учебные программы (официальные дипломы):

- Высшее образование
- 2-е высшее образование
- Профессиональная переподготовка

Поиск друзей

Пригласите друга по электронной почте.

Пригласить по e-mail

Интересное всего: 42

Основы программирования

Тема: Программирование

[вступить в сообщество](#)

Графика и визуализация


Тема: Графика и визуализация

[вступить в сообщество](#)

3-rasm.INTUIT.RUda foydalanuvchi sahifasi


Har bir foydalanuvchi uchun bu shaklda alohida sahifa paydo bo'ladi. Bu sahifada foydalanuvchining shaxsiy ma'lumotlari, oq'uv faoliyatida erishgan natijalari va a'zo bo'lgan kurslari haqida ma'lumotlar joylashgan. Bu yerdagi

ma'lumotlardan foydalanuvchi uchun kerakli bo'lgan barcha xizmatlarni amalga oshirishi mumkin.



4-rasm.INTUIT.RUda foydalanuvchi a'zo bo'lgan kurslar ro'yxati

Bu oynada foydalanuvchi qiziqishi doirasidagi kurslar ro'yxati joylashgan bo'lib undagi ixtiyoriy kursdan bittasidan foydalanishimiz mumkin.



5-rasm.INTUIT.RUda HTML kursi sahifasi

Biz kursdagi HTML mavzusini tanladik va bu mavzu bo'yicha kursni o'zlashtirganimizdan keyin bizga sertifikat va diplomlar berilishi mumkin. Buning uchun albatta har bir kursning yakunida test shaklida imtihoblar topshiriladi.

Hozirgi kunda dunyo miqyosida mavjud bo'lgan mashhur online platformalarga quyidagilarni kiritish mumkin:

1. «Coursera» — 147 universitet bitta saytda

Bu nima degani?

Ushbu platforma 2012-yili AQShning eng nufuzli ta'lim dargohlaridan biri — Stanford universiteti o'qituvchilari tomonidan yaratilgan. Uning yaratuvchilari o'z oldilariga amerikaliklar va boshqalar uchun qulay bilim berishni maqsad qilib qo'ygan. Bugungi kunda portal butun dunyo bo'ylab 25 milliondan ortiq kishini o'qitdi va unda 2 mingdan ortiq kurs mavjud, shu jumladan, ularning to'rttasi yarim hajmdagi akademik bosqichlar hisoblanadi.

Kimlar o'qitadi?

«Coursera»da 147 oliy o'quv muassasasi jamlangan. Ular orasida Stanford, Kolumbiya, Kaliforniya, Michigan universitetlari bor.

Recently Viewed Courses



Asymmetric Cryptography
and Key Management
University of Colorado Sy...



Mastering the Software
Engineering Interview
University of California, S...



Developing Android Apps
with App Inventor
The Hong Kong Universit...



Elastic Cloud
Infrastructure: Scaling a...
Google Cloud



Motores gráficos en
videojuegos: game engine
Universitat Autònoma de...



Software Security
University of Maryland, C...



Writing, Running, and
Fixing Code in C
Duke University



Introduction to
Architecting Smart IoT
EIT Digital



Gamification
University of Pennsylvania

Mashhur kurslar: kriptografiya, intervyuga tayyorlanish, «Android» ilovalarini ishlash va boshqalar.

O'qituvchilar tarkibi ham sizni hayratlantirmasdan qolmaydi. Ular orasida dunyoning IT-sohasidagi yetakchi mutaxassislari ham bor.

Nimalarni o'rgatishadi?

O'zini hurmat qiladigan mohir texnolog bo'lib yetishish uchun barcha narsani. Matematika, algoritmlar, dasturlash tili, zamonaviy texnologiyalar, mobil ilovalar...

Eng mashhur kurslar: kriptografiya, intervyuga tayyorlanish, «Android» ilovalari ishlab chiqish va boshqalar.

Kimlarni olishadi?

Tarif bo'yicha — barchani. Ammo bir nechta shunday kurslar ham borki, buning uchun boshlang'ich saralash yoki testdan o'tish talab etiladi.

Qancha turadi?

Kurslar 25 dollardan 99 dollargacha turadi va bu summa bu darajadagi tahsil uchun qimmat emas. Ammo to'lov majburiy ham emas — bir necha kurslar tekin va ularni o'rganib, pul to'lashga arziydimi-yo'qmi, o'zingiz bir qarorga kelishingiz mumkin.

O'quv qay tarzda bo'ladi?

Kursga yozilishingiz bilan siz ma'ruzalar hamda talabalar forumida ishtirok etishingiz mumkin. Bu alohida qiziqarli tajriba — butun dunyo bo'ylab turli yoshdagi kasb egalari bilan suhbatlashishingiz mumkin. Faqatgina eronliklar va kubaliklar, bundan mustasno.

Qanday hujjat beriladi?

Sertifikat, ammo, faqatgina pullik o'quvlar uchun. Kurs yakunida imtihondan o'tishingiz lozim bo'ladi. Imtihondan o'ta olsangiz, rasmiy hujjatga ega bo'lasiz.

2. «Udacity» — Kremniy vodiysi universiteti

Bu nima degani?

«Udacity» — bo'lajak, sobiq va hozirda faoliyat ko'rsatayotgan axborot-kommunikatsiya texnologiyalari mutaxassislari mo'ljallangan platforma.



Kremniy vodiysi universiteti.

Uning maqsadi — IT sohasiga doir yangiliklar, yangi bilimlar hamda yangi ish topishga ko‘maklashishdan iborat.

Kimlar o‘qiydi?

Bu yerda barchasi juda qiziqarli. Loyiha muassislarining aytishicha, «Udacity» — nafaqat Kremniy vodiysi universiteti, balki «Universitetlar o‘rtasidagi Gollivud»dir.

Kurslar uchun materiallar «Google» va «Facebook» kabi kompaniyalar mutaxassislari tomonidan taqdim etiladi. Biroq barcha dasturchilar ham yaxshi tushuntira va o‘rgata olmaydi. Shu bois «Udacity» materiallar, professional o‘qituvchilar, aktyorlar, montajchilarni birlashtiradi va ularni qisqa, qiziqarli hamda yengil hazm bo‘ladigan videoroliklarga aylantiradi.

Nimani o‘rgatishadi?

«Udacity»ning kurslari ro‘yxati xuddi ish axtarish uchun «hikmatlar toshi»ga o‘xshaydi. «Data Science», «IoT», virtual reallik. Va, albatta, dasturlash tillari.



7-rasm. «Udacity»ning asosiy yo‘nalishlari ro‘yxati.

Kimlarni olishadi?

Bepul kurslar uchun cheklov yo‘q. Biroq pullik kurslarga qatnashish ba’zida ma’lum tajriba yoki bilim talab etadi.

Qancha turadi?

Kurslarning ikki turi bor: tekin va «Nanodegree» kurslari. O‘nlab bepul kurslar — platforma bilan tanishishning eng yaxshi yo‘li.

«Nanodegree» — «Udacity» dasturchilar universiteti. Ular ma’lumotlar bazasi, «Android» uchun mobil ilovalar hamda sohaga doir, tor doiradagi, chuqurlashgan dasturchilar tayyorlaydi. Chunki mehnat bozori ham aynan shuni talab etmoqda. O‘qish narxi kurslarga qarab, 20dan 200 AQSh dollarigacha.

	Artificial Intelligence for Robotics Project Build a Digit Recognition Program Learn how to program all the major systems of a robotic car. Topics include planning, search, localization, tracking, and control. IN COLLABORATION WITH Georgia Institute of Technology	■■■ Advanced 1.9K
	Introduction to Python NEW Python is one of the most popular programming languages in the world. If you already know another language and want to expand to Python, this is the course for you!	■ ■ ■ Beginner 3.2K
	Data Wrangling with MongoDB Data Scientists spend most of their time cleaning data. In this course, you will learn to convert and manipulate messy data to extract what you need. IN COLLABORATION WITH MongoDB	■■ ■ Intermediate 1.9K
	Intro to Parallel Programming Learn the fundamentals of parallel computing with the GPU and the CUDA programming environment by coding a series of image processing algorithms. #filters, #cuda. IN COLLABORATION WITH Nvidia	■■■ Advanced 1.6K

8-rasm.Kurslardan namunalar.

Ularning asosiy qismi yetakchi kompaniyalar hamda universitetlar bilan hamkorlikda tuzilganini payqash qiyin emas.

«Udacity»da bir qancha stipendiyalar ham bor. Bular — «Google»ning WEB va «Android» dasturchilari uchun mo‘ljallangan. Bu stipendiya Yevropa, Turkiya va Rossiya aholisi uchun mo‘ljallangan. Har yili stipendiya talablarini bajargan 60 ming talaba 3 oy tekin kurslarda qatnashadi. Ular orasidan eng kuchli 6 ming nafari esa «Nanodegree» kurslarida bepul tahsilni davom ettirishmoqda.

O‘quv qay tarzda bo‘ladi?

Har bir kursning maqsadi — nafaqat o‘rgatish, balki yangi loyihalarga yo‘l ochish. Siz o‘zingiz o‘rgangan materiallardan diplom ishingizda foydalanishingiz mumkin, yetakchi mutaxassislar esa yozgan kodingizni tekshiradi, yordam beradi va yo‘naltiradi.

Qanday hujjat beradi?

«Nanodegree» sertifikat.

3. «Khan Academy» — mutlaqo bepul ta’lim!

Bu nima degani?

Asli kelib chiqishi bengallik bo‘lgan Salmon Xon sharafiga nomlangan platforma. Salmon uzoqdagi qarindoshiga matematika fanidan yordam berish uchun videorolik tayyorlab, «YouTube»ga joylashtirgach, kutilmaganda, juda mashhur bo‘lib ketadi. Shundan so‘ng u ishdan bo‘shab, onlayn-akademiya asos soldi. Hozirda uning «YouTube»dagi kanali uch milliondan ortiq obunachiga ega.



*Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Stenford universiteti talabalarining 65 foizi
«Khan Academy»dan foydalanadi.*

Statistik ma’lumotlarga ko‘ra, Stenford universiteti talabalarining 65 foizi «Khan Academy»dan foydalanadi.

Kim o‘qitadi?

Platformada dunyoning turli nuqtalaridan yuzdan ortiq o‘qituvchi faoliyat ko‘rsatadi. Ular orasida maktab va oliy ta’lim dargohlari o‘qituvchilari, shuningdek, turli sohaga oid ekspertlar ham bor.

	Computer programming 0 of 441 complete Learn how to program drawings, animations, and games using JavaScript & ProcessingJS, or learn how to create webpages with HTML & CSS. You can share whatever you create, explore what others have created and learn from each other!	Intro to JS: Drawing & Animat... Intro to HTML/CSS: Making w... Intro to SQL: Querying and m... Advanced JS: Games & Visu...	Advanced JS: Natural Simula... HTML/JS: Making webpages ... HTML/JS: Making webpages ... Meet the professional
	Computer science 0 of 178 complete Learn select topics from computer science - algorithms (how we solve common problems in computer science and measure the efficiency of our solutions), cryptography (how we protect secret information), and information theory (how we encode and compress information).	Algorithms Journey into cryptography Journey into information the...	Internet 101
	Hour of Code 0 of 49 complete Only have an hour? Learn the basics of programming, making webpages, or creating databases.	Drawing with code Creating webpages Creating SQL databases	Hour of Code (for teachers a... Drawing with code

9-rasm.Kurslar ro'yxati.

Nimani o'rgatishadi?

Barcha narsani. Biologiya, fizika, kimyo, tarix, meditsina. Va, albatta, dasturlashni ham.

Kimnlarni olishadi?

Barchani!

Qancha turadi?

Platforma shiori: «Barcha uchun va hamisha bepul».

O'quv qay tarzda bo'ladi?

Roliklarni tomosha qilasiz va o'rganasiz. Roliklar ingliz tilida. Shuningdek, savollar berish hamda boshqa talabalar bilan suhbatlashish uchun forum ham bor[22].

II bob. ZAMONAVIY WEB TEXNOLOGIYALAR VA VOSITALAR

1.Java Script web dasturlash tili imkoniyatlari

Java-Script tili Java dasturlash tilining bir kichik qismi bo'lib, u HTML va WEB hujjatlar tayyorlashda keng kulamda qo'llaniladi. Bu til 1995 yildan boshlab ishlatila boshlangan. Bu tilning qulaylik tarafi shundaki unda tuzilgan dasturlarni compile qilish shart emas. Bu til Internet Explorer brouzeri tarkibiga kiritilgan. Hozirgi kunda Windows tarkibida Internet Explorer dasturiy ta'minoti kiritilgan uchun bu tildan foydalanish juda qulay. Bu til ko'pincha Web sahifa yaratishda keng qo'llaniladi. Undagi qilish mumkin bo'lgan Interfeyslar (muloqotlar), harakatdagi tasvirlar, slayd ko'rinishidagi ma'lumotlar qilish imkoni bevosita qo'llaniladi.

Java-Script tilini tarixi yetarli darajada uning ko'p shaxsiy afzalliklari, muammolari, va hattoki web texnologiyada tutgan muhim ahamyatini tushuntiradi. Hattoki Java-Script degan nomni o'zi ham agar uning tarixini bilmasa odamni chalkashtirishi mumkin. Java Script va Java nomlarida o'xshashlik borligi bilan ikkalasi hech qanaqa bog'liqlikka ega emas. 1995 yilda Netscape kompanyasi Livescript tilini taqdim etdi. Bu tilni vazifasi formalar to'ldirishni to'griligini aniqlashdan iborat edi. Keyinchalik u nomi Javascriptga o'zgartirildi. Uning sababi o'sha vaqtda hammani javaning imkonyatlari va web sahifa tuzuvchilarning ishini yengillashtirishi hayron qoldirayotgan edi. Tilning nomiga java so'zini qo'shilganligi odamlarda javascript javaning yangicha loyihalar tuzuvchi bir qismi degan tushunchani tushunchani uyg'otdi. Shu sabab tilning ismi shuu ish bilan shug'ullanuvchi kompaniyalar bu tilni kuchli qo'llab quvvatlab o'z foydalanayotganprogrammalarida qo'llay boshladilar. Netscape java script tilini o'zining brauzerini 2.0 versiyasida nomayish qilganidan keyin Microsoft kompanyasi ham javascriptni jscript nomi ostida Internet Explorer brauzerida qo'llay boshladi. Internet Explorer ning keyingui varsiyalari ham javascriptni qallab quvvatlaydi[11].

Bu til faqatgina Internet Explorer dasturida emas balki Mozilla brouzerida ham ishlayveradi. Java scriptni nafaqat web sahifada balki Windows script host

yoki mozilla, Jscript.net lari bilan ishlashda qo'llashimiz mumkin. Javascript va Jscript tillarini hozirgi kunda ko'plab brauzerlar qabul qiladi. Vaqt o'tishi bilan barcha programma ishlab chiqaruvchilar javascriptni maxsus kengaytirilgan variantini o'z brauzerlarida qo'llashmoqda.

Quyidagi jadvalda java script tilini qo'llab quvvatlovchi brauzerlar ro'yxati berilgan:

Brauzer versiyasi	Javascript tilini qo'llab quvvatlashi
Netscape 2.x	1.0
Netscape 3.x	1.1
Netscape 4.0-4.05	1.2
Netscape 4.06-4.08, 4.5x,4.6x,4.7x	1.3
Netscape 4.6x, 4.7x	1.4
Mozilla variantlari	1.5
Internet Explorer 3.0	Jscript 1.0
Internet Explorer 4.0	Jscript 3.0
Internet Explorer 5.0	Jscript 5.0
Internet Explorer 5.5	Jscript 5.5
Internet Explorer 6	Jscript 5.6

Mahsus Java script odatdagidan ham tezroq va aniq ishlaydi, lekin krossplatformali qo'llab quvvatlash oxirgi yangilik emas.

Java script tez rivojlanib mijozlar tomonidan ko'plab foydalaniladigan asosiy tilga aylandi. Til uzining yutuqlari bilan ko'p narsaga ishlatilishi mumkin. Script oddiylkdagi imkonyatni vujudga keltirib programmani kodini o'chirib uni html ko'rinishiga otkazadi.nundan tashqari shu matnni ishlatilishi matndan sahifani ajratishni boshqarishi mumkin. Matnni o'chirish oson lekin buni ochish scriptda ko'proq muammoni keltirib chiqaradi. Til o'zi xoxlamagan holda brauzerga qo'shildiva natijada alohida ko'pgina xotoliklar ajralib chiqdi. Shu sababli Ecma Script vujudga kelib obyekt modeli DOM hujjati, w3c qabul qilinib, kelajakda

muammolardan holi bo'lishi uchun shartli holda mehnat talab qilib, java script dasturni har xil brauzerlarda ishlashi uchun majburiy java script kodi kiritildi[13].

Java Script yordamida web sahifa tayyorlash

HTML-coding – bu html-kodlar orqali web-dokument yaratish tili hisoblanadi. (HTML so'zining kengaytmasi Hyper Text Multi Language) HTML-kodi bilan web-dokument yaratish - bu dastlab qaraganda qiyin ishdek tuyuladi. Ammo bu orqali dokument yaratishni o'rganib olsangiz, sizga hech qayerda pand bermaydi. Hozirda HTML-kodi bilan ishlamasdan ham web-dokument yaratish mumkin. Bunda Macromedia Dreamwaver, Microsoft Frontpage va birqancha mayda tahrirlovchi dasturlar yordam beradi. Lekin siz maxsus dasturlar orqali dokument yaratsangiz, to'liq o'rgana olasiz deb kafolat bermayman. Shaxsan o'zim o'z saytimni yaratishda bor yo'g'i Bloknout standart dasturidan foydalanganman xolos). Javascript va HTML-kodingni o'rganishda birortayam maxsus kitob kerak bo'lmadi. O'zim yoqtirgan saytlarning HTML-kodini ko'rib o'rganganman. Agar sizda ham Internetga ulanish imkoniyati bo'lsa shuni maslahat beraman. Demak boshladik.

Bloknout dasturini ochamiz (Faqat 'tekstoviy dokument' yaratmang). Html kodida dastlab <html> yozuvi bilan boshlaymiz. Bu html-dokument boshlanishida yoziladi. Ohirida esa </html> yoziladi:

<html>

</html>

Ularning ichida <head>ni yozamiz. Bu dokumentni bosh qismi bo'ladi. Unda sarlavha, style, meta, link, freym va scriptlar joylashadi. Undan so'ng body tana qismi va uning ichiga kerakli ma'lumotlar kiritiladi. Ularni yonma-yon qilib yozsa ham bo'ladi. Faqat siz tushunishingiz uchun yangi qatordan boshlab yozdim. Uni 'Rabochiy stol'da saqlaymiz. Saqlayotganda fayl nomidan keyin .html qisqartmasini ham yozishingiz kerak:

*.html

Bunda * siz beradigan nom.

Saqlaganingizdan keyin uni ochasiz. U Internet Explorer dasturida ochiladi. Hech narsa yozilmadimi? Biroz shoshmang. Siz hozir dasturning "qolip"ini yozdingiz holos. Unga o'zgartirish kiritish uchun sichqonchani o'ng tomonini bosib hosil bo'lgan menyudan HTML- ga kirasiz. Unutmang bunday o'zgartirish kiritish faqat dokument offlayn holatda bo'lgandagina amalga oshishi mumkin. Dokumentga sarlavha beramiz. Sarlavha dokument tepasida yozilib turadi.

Sarlavha yozish uchun title buyrug'i kerak bo'ladi:

```
<title> My program </title>
```

(Bundan keyin buyruqlarni 'teg' deb ataymiz) Dokument ichiga narsa yozish uchun body tegi ichiga xohlagan yozuvingizni yozasiz. Misol: html>

```
<head>
```

```
<title>My program</title>
```

```
</head>
```

```
<body>
```

My web

```
</body>
```

```
</html>
```

Saqlab sinab ko'ring. Bunda dokument sarlavhasi "My program", ichida esa "My web" yozuvi yozilgan bo'ladi. Yozuv odati bo'yicha Times new roman shriftida va 10-kattaligida bo'ladi[14].

Sahifa yaratish jarayoni

Shrift turini o'zgartirish:

Bunda yozayotgan yozuv oldidan font tegini va uning parametrlarini qo'yamiz. Masalan, . Bunda shrift turi - 'verdana' kattaligi - '2', rangi - ko'k. Shrift turiga o'zingiz istagan shrift nomini to'liq yozilishini yozasiz. Faqat siz yozgan shrift kompyuteringizda bo'lishi kerak. Kattaligi 1 dan 7 gacha bo'ladi. Rangiga esa inglischang rang nomlarini yozasiz yoki rang nomerini yozasiz: #000000 - qora rang, #ffffff - oq rang. Misol:

```
<title>Mening birinchi dasturim</title>
```

```
</head>
```

```
<body>
<font size="2" color="red" face="arial">
Hello</font><font color="#00ffff"> world! </font>
</body>
</html>
```

SCRIPT parametri

Script'lar javascript dasturlash tilining berilishi hisoblanadi, U odatda script va /script orasiga yoziladi. Oddiy script ko'rinishi:

```
<script type="text/javascript">
document.write('Hello World! ');
</script>
```

type – scriptning qaysi tilga tegishli ekanini bildiradi. Javascriptdan tashqari VBScript ham bo'lgani uchun text/javascript deb yoziladi. Ammo saytlar ichiga scriptlar qo'yganda buni yozish shart emas. Chunki, saytga faqat javascript qo'yiladi. Document.write – Bu qanday so'z chiqishi kerakligi. Agar script ishlasa Hello world! so'zi chiqadi. Qavs yopilgandan keyin albatta ';' qo'yilishi kerak. Script offlayn-rejimda brouzerda ochilganda Internet Explorer uni dastlab ko'rsatmasligi mumkin va tepasida sariq oynacha chiqadi. Sariq oynacha ustida kursor bosiladi, Chiqqan menyudan birinchisi bosiladi va OK. Sariq oynacha Internet Explorerning xavfsizlik xizmati hisoblanadi. Chunki Javascriptdan ham viruslar yaratish xavfi bor.

Ba'zi eski brouzerlarda scriptlar ishlamasligi ham mumkin. Bunday holatda noscript parametri ishlatiladi. Noscript agar script ishlamasa chiqadigan yozuv.

```
<script src="text/javascript">
<noscript>Sizning brouzingiz scriptni ishlata
olmayapti. Yangiroq brouzerga o'ting </noscript>
window.location="http://tenorio.tk";
</script>
```

Agar bir nechta sahifalarda bitta scriptni ishlatish kerak bo'lsa, scriptni alohida fayl ko'rinishida saqlasa bo'ladi. Script bloknotda yoziladi. Saqlashda script va /script parametri yozilmaydi yoki yozilganda oldiga '/' belgisi qo'yiladi. Bo'lmasa script ishlamaydi. Misol:

```
//<script src="text/javascript">  
<noscript>Sizning brouzeringiz scriptni ishlata  
olmayapti. Yangiroq brouzerga o'ting </noscript>  
window.location="http://tenorio.tk";  
//</script>
```

META parametri

Meta parametrada saytning qisqacha nomlanishi, ma'lumoti, beriladi. Bu ko'proq qidiruv saytlarida (google, yandex, yahoo) saytingizni qidirishi uchun qo'l keladi. Agar metaga saytingizni kalit so'zini yozmasangiz, uni Google' da ming qidirsangiz ham topolmaysiz. Sayt haqidagi qo'shimcha ma'lumotlar, ba'zi parametrlar (masalan, rasmning tepa chap qismidagi qo'shimcha menyuni chiqarmaslik) ham kiritiladi. Parametrlari:

NAME, HTTP-EQUIV – meta-yozuvni nomini aniqlaydi.

CONTENT – meta va http-equiv'ning nima ish qilishini aniqlaydi.

Misol:

```
<head>  
...  
<meta http-equiv="express" content="Shanba, 26 avgust 2006 00:01:02 GMT">  
<meta name="GENERATOR" content="Greenback">  
<meta name="Publisher-Email" content="admin@tenorio.tk">  
<meta name="Publisher-URL" content="http://www.tenorio.tk/">  
<meta name="Keywords" "Flash-games,Windows,modding,Collection">  
<meta name="Description" content="All surprises in here">  
</head>
```

Bu yerda kalit soʻzi – keywords orqali qidiruv saytlari sahifani qidiradi. Description'da saytning qisqacha mazmuni oʻrin oladi. Rasm chap-tepa qismidagi menyuni yoʻqotish uchun quyidagini yozish kerak:

```
<meta http-equiv='imagetoolbar' content='no'>
```

Saytga kirganda kompyuter keshiga tushib qolishini oldini olish uchun bu parametрни ichiga yozish kerak:

```
<META HTTP-EQUIV=Cache-Control content=no-cache>
```

Jadval qoʻyish

Jadval yaratish uchun table buyrugʻi kerak boʻladi.

table - jadval yaratilishi

tr - ustunlar soni

td - qatorlar soni. Masalan:

```
<table align="center" valign="top" border="1"
color="blue" width="700" height="400"><tr><td
bgcolor="red">
... </td></tr></table>
```

Bunda Jadval sahifa oʻrtasida joylashadi, vertikaliga tepada boʻladi. Chegarasi rangi: Koʻk. Uzunligi: 700 piksel, kengligi: 400. Orqa foni qizil. Va jadvalning ichida 3 ta nuqta yoziladi. table'ga berilgan parametrlarni tr, td'ga ham qoʻllash mumkin. Ammo html-dasturlashda ulardan yonma-yon yozishda ham qoʻllaniladi. Jadval orqasiga rasm ham qoʻyish mumkin. Agar td oʻrniga th qoʻyadigan boʻlsak bu qator alohida ajratib yoziladi.

1.

Tenorio	www.tenorio.tk
	tenorio.uz@rambler.ru

2.

Tenorio	
www.tenorio.tk	tenorio.uz@rambler.ru

Bunday jadvallar ham ko‘p uchraydi, bunda hozirgilar bilan ish bitmaydi. Dastlabki jadvalda tr dan keyin rowspan=2 qo‘shiladi. Bunda tr ikki qatorni o‘rnini egallaydi. Kodi:

```
<tr rowspan=2><td>Tenorio</td>
<td> www.tenorio.tk</td>
</tr>
<tr>
<td>tenorio.uz@rambler.ru</td>
</tr>
</table>
```

Menyu qo‘yish

Menyular ko‘rinishini son qo‘yib yozish, biror belgi qo‘yib yozish mumkin. Masalan:

```
<ul>
<li>My first web-site
<li>My second web-site
</ul>
<br><br>
```

Bu misolda menyu kichkina doira bilan yoziladi. Sonlar yoki rim raqamlari qo‘yib, harflar qo‘yib yozsa ham bo‘ladi.


```
<textarea cols=40 rows=4>
<ol type="1" start="2">
<li> Ikkinchi punkt;
<li> Uchinchi punkt;
<li> To‘rtinchi punkt
</ol>
```

Bu yerda son(type="1") qo‘yib yozadi. sanoq esa 2 dan boshlanadi(start="2"). Agar parametrini 'a' qilib o‘zgartirsak, harflar qo‘yib, 'A' -

kata harflar bilan, 'I' - rim raqamlari bilan, 'i' - kichik rim raqamlari bilan yozishni boshlaydi.

My mail

admin@tenorio.tk

My site

www.tenorio.tk

Bunday menyularni qilishda dl bilan boshlanadi:

<dl compact>

<dt>My mail<dd>tenorio@tenorio.tk

<dt>My site<dd>www.tenorio.tk

</dl>

Gipperssilkalar

Eng keng tarqalganlaridan biri bosiluvchi ssilkalardir. U bilan belgilanadi. 'href='dan so'ng qo'shtirnoq ichiga qayerga kirishi yoziladi. Masalan My site bunda 'My site' bosiladi. va mening saytinga kiradi, agar Internet bo'lsa. Yoki web-sayt yaratayotgan bo'lsangiz,

 About -

sizning HTML-dokumentingiz bilan birga turgan yana bir html-dokument 'about.html'ga kiradi. Bu ko'pincha offlayn rejimda ishlayotganingizda qo'l keladi. Yoki u bilan rasmni ham brouzerda ochish mumkin:

 Cola rasmi .

Rasm brouzerda ochiladi. Eslatma, rasm html-dokumentingiz bilan bir papkada turishi kerak.

Html-dokumentlarni yangi oynada ochadigan qilish ham mumkin. Bunda bizga 'target' kerak bo'ladi. 'target=' qilib uning parametrini yozamiz. Masalan Tenorio - Yangi oynada ochiladi. Agar dokumentda ma'lumotlar ko'p bo'lsayu, ancha pastga tushishga to'g'ri kelsa, bunda ham 'a' ning yordami tegadi. Siz o'z dokumentingiz pastki qismiga 'tepaga

qaytish yozuvini qo'yishingiz mumkin. U bosilganda dokument tepa qismiga qaytiladi:

`<a href="#top">` - dokumentning tepasiga qaytiladi.

Yoki dokumentning istalgan xatboshisiga ham olib borish mumkin. Bunda dastlab o'sha hatboshi yoniga `<a name="word"></a>` yozish kerak(wordning o'rniga hohlagan so'zingizni yozing). So'ngra sahifa ohirida `<a href="#word">Hatboshi</a>` qo'yiladi. word - bu yerda siz yozadigan so'z. U bitta so'zdan iborat bo'lishi kerak.

Qolgan parametrlar:

ftp://... - ftp-saytlarga kiruvchi yo'l hosil qiladi.

news:... - serverda xabarlar konferensiyasiga yo'l;

telnet://... - kompyuterni telnet sessiyaga ulovchi ssilka

mailto:... - pochta dasturi orqali xat yuborish. Windowsda bu dastur - Outlook Express.

Pochtaga xat yozish ssilkasi keng tarqalgan bo'lib, asosan

`<a href="mailto:tenorio.uz@rambler.ru">`

ko'rinishida bo'ladi. Buni qo'shimchalari bilan kengaytirish mumkin. Masalan

`<a href="mailto:tenorio.uz@rambler.ru?subject=Mulohaza
&cc=prince.uz@iguzar.com&body=Salom."> Xat yuborish
`

Bunday ko'rinishda 'mailto:tenorio.uz@rambler.ru' odatdagidek kimga yuborish joyiga tushadi. '?subject=Mulohaza' - Matn nomiga yoziladi. '&cc=prince.uz@iguzar.com' - nusxasini qayerga saqlash, '&body=salom' - matn yozish qismidagi so'z.

Rasmlarda ssilka ham so'zlardagidek qilinadi:

`<a href="http://tenorio.tk/"></a>`

Formalar

Formalar `<form>` bilan boshlanadi va `</form>` bilan tugaydi. Ular knopkalar hosil qilishda, matn yozish uchun joy ochishda, e-mail saytlarida login va parolni kiritishda ishlatiladi. Uning parametrlari:

NAME - forma nomi. ko‘pincha bitta sahifada birqancha formalar kiritilayotganda kerak bo‘ladi. ACTION - eng kerakli parametr. Formani yuborish URLi ko‘rsatiladi[12].

TARGET - yuborilayotganda qaysi oynada ochishini ko‘rsatadi. a'ning parametriga o‘xshash.

Berilganlar form ichida probel tashlab yoziladi.

Endi form orasida yoziladigan elementlarga o‘tamiz.

Textarea - matn kiritish uchun ochiladigan joy. Siz uni saytlarda fikr-mulohaza qo‘shish joyida ko‘rgan bo‘lsangiz kerak.

Parametrlari bilan tanishib chiqamiz:

NAME - textarea nomi.

ROWS - ekranda ko‘rinadigan matn qatorlari soni.

COLS - ekranda ko‘rinadigan matn bo‘yiga qatorlari soni.

Misol:

```
<form>
```

```
<textarea name="address" cols="3" rows="40">
```

Sizning manzil

Select - "ko‘plardan birini tanlash" parametri. U o‘zida option orqali birnecha parametrlarni hosil qiladi. Parametrlar:

NAME - 'select' nomi parametri.

SIZE - menyudagi ko‘rinadigan obyektlar soni.

Misolni keltiramiz:

```
<form>
```

```
<select name="Tanlash">
```

```
<option selected>www.tenorio.tk
```

```
<option value="myp">www.myp.uz
```

```
<option>www.iguzar.com
```

```
<option>www.tashkent.net
```

```
<option>www.rambler.ru
```

</select>

</form>

2. PHP da web sahifalarni dinamik shaklda yaratish

Yani bu yerda biz oldindan qandaydir sahifani shablonini yaratamiz, va keyinchalik shuni ishlatgan holda har hil informasialarni shu shablon orqali chiqaramiz.

include()

Faylimiz ichiga boshqa faylni qo'shish, biz bu funksiyani yuqoridagi mavzularda ham ko'rib o'tganmiz.

include_once()

Aynan *include* kabidir, ammo farqi shundaki agarda programmamiznig qaysidir joyida biz oldindan qoshgan bo'lsak shu faylni unda qayta qo'shmaydi.

require()

Aynan *include* kabidir, faqat farqi shundaki agarda programmizda qandaydir tekshirish (*if*) bo'lsa va agarda tekshirishning ichida to'g'ri bo'lganda qo'shgin desak, va tekshirish noto'g'ri bo'lsa ham faylni qo'shadi.

Misol:

```
if (some_condition):
```

```
require('test.php');
```

```
else:
```

```
print "No result";
```

```
endif;
```

bu yerda *some_condition FALSE* bo'lsa ham *test.php* faylimizga qo'shiladi.

Boshqa bir misol:

user.tpl fayli

```
<?
```

```
$site_name="PHP tutor";
```

```
$email="uzinfo@inbox.ru";
```

```
$name="Sinch";
```

```
?>
```

index.php fayli

```
<? require ('user.tpl') ?>
<HTML>
<HEAD>
<title><?print $site_name?> </title>
</HEAD>
<body>
<?
print "Welcome to $site_name. For some questions sent to
  <a href=\"mailto:$email\">$name</a> ";
?>
</body>
</HTML>
```

shunda *user.tpl* dan ma'lumot o'qiladi va sahifa ichida ulardan foydalaniladi.

require_once()

Aynan *include_once* kabidir farqi *require* va *include* orasidagi farqidir. Keling bir kichik misolda shularni hammasini ko'rib chiqaylik.

Fayl site.tpl

```
<?
$site_name="PHP Darslari";
$site_email="uzinfo@inbox.ru";
$site_path="http://uzinfo.php0h.com";
function show_header($site_name){
?>
<html>
<head>
<title><? print $site_name ?> </title>
</head>
<body>
```

Bu sahifa boshidir.

```
<hr>
```

```
<?
```

```
}
```

```
function show_footer(){
```

```
?>
```

```
<hr>
```

Bu tugashi

```
</body>
```

```
</html>
```

```
<?
```

```
}
```

```
?>
```

fayl test.php

```
<?
```

```
include ("site.tpl");
```

```
show_header($site_name);
```

```
show_footer();
```

```
?>
```

Va agarda shuni ishlatsangiz oynangizda quyidagicha sahifa ochilishi kerakdir.

Mana shu kabi siz oldindan shablonlarni tayorlab olib keyinchalik o'zgartirish orqali oynaga sahifalarni chiqarishingiz mumkindir[11].

Agarda har kuni sahifa o'zgarishi kerak bo'lsa misol uchun yangiliklarni shunda siz faqatgina shablon yasaysiz va qolgan ma'lumotni esa fayldan o'qib olish mumkindir.

3. HTML 5 tilida qo'shilgan yangi imkoniyatlar

Hozirgi kunga kelib web texnologiya juda katta tezlikda rivojlanib bormoqda. Har kuni yangi saytlar butun olam o'rgimchak to'risiga qo'shib borilmoqda(shu qatorda ko'p saytlar o'z ishini yakunlamoqda). Saytlarning asosini



html gippertekst tili tashkil etadi. Ko'p yillar davomida sayt yaratuvchilar(taxminan 10 yil) html 4 dan foydalanib kelishgan. 2004 yilda esa yirik kompaniyalar(Apple, opera, Mozilla) birlashib yangi guruh hosil qilishdi va bu guruhni **WhatWG(Web Hypertext Application Technology Working Group)** deb nomlashdi. So'ng bu guruhga **W3C** (World Wide Web Consortium) ham kirib keldi va yangi html 5 ni ishlab chiqarishni boshlashdi. HTML 5 da flash pleyerlar o'rnini teglar egalladi va sayt strukturasi uchun alohida teglar qo'shildi. 18 yanvar 2011 yilda HTML 5 logotipi yaratildi va 2011 yil 1 aprelda ommaga taqdim etildi. HTML 5 ning ba'zi bir teg va atributlari haqida to'xtalib o'tamiz:

Sayt strukturasi yaratishda asosan biz `<div>` tegidan yoki jadvallardan foydalanamiz. Saytning qismini `<div>` orqali ajratamiz. HTML 5 da esa sayt strukturasi uchun alohida teglar yaratilgan. Bu teglar quyidagilar:

`<header>` - sahifa nomi uchun teg[17].

`<footer>` - saytning eng pastki qismi(подвал) uchun zarur bo'lgan teg. Asosan bu tegning ichiga "copyright" kabi ma'lumotlar yoziladi.

`<nav>` - sayt navigastiyasi uchun teg.

`<aside>` - asosan sekstiyalar (o'ng yoki chap menyular) yaratish uchun ishlatish mumkin bo'lgan teg.

`<section>` - Sahifadagi asosiy ma'lumotlarini chiqarish uchun.

`<article>` - Yangiliklar, kommentariyalar, maqolalarning kontentlarini chiqarish uchun[17].

Bu teglarni kerakli joylarda to'g'ri ishlatish sayt strukturasi tushunarli(tartibli) bo'lishiga olib keladi.

- Hozirgi kunda saytlarni formalarsiz tasavvur qilib bo'lmaydi, ya'ni formalar saytlarning asosi bo'lib qolgan. Formalar asosan ro'yxatdan o'tishda, kommentariyalar yozishda, qandaydir blankalarni to'ldirish jarayonida zarur bo'ladi. Foydalanuvchilar formalarni to'latib, serverga jo'natish jarayonida kiritilgan ma'lumotlarning to'liqligi va to'g'riligini tekshirish uchun alohida skriptlar yoziladi. HTML5 da yangi Web Forms 2.0 nomli formalar bilan ishlash

uchun tartib qoidalar ishlab chiqilgan. Yangi “required” va ”email” nomli atributlar orqali avtomat tarzda foydalanuvchi kiritgan ma’lumotlar tekshiriladi. Xattoki elektron pochta adreslari to’g’ri kiritilganligi to’g’risida ma’lumot beradi. Bu atributlardan boshqa yana bir necha forma ma’lumotlarini tekshiradigan atributlar mavjud.(url, data, datetime, week, month, number,...)[10].

- Saytlar orqali video lar ko’rmoqchi bo’lib, videoga oid saytni ochsangiz, u yerda flash player o’rnatish kerakligi to’g’risida sayt tuzuvchilari sizga axborot beradi va siz flash player qidirishni boshlaysiz. Ortiqcha ish bajarasiz va vaqtingizni yo’q joydan sarflaysiz va bir hisobda pulingizni ham(yuklab olish uchun ketadigan megabaytlar). HTML5 tuzuvchilari multimediya yo’nalishida ham yangi teglar yaratishdi va bu teglarni <video> va <audio> deb nomlashdi. Endi siz sayt foniga musiqalarni va sayt sahifalariga video fayllarni osonlik bilan joylashtirishingiz mumkin bo’ladi.

- Ko’p foydalanuvchilar axborotlarni vizual tarzda eslab qolishga va solishtirishga xarakat qilishadi. Misol uchun har xil diagrammalar orqali. Agar diagrammalarni rasm shaklida saytga joylashtirsangiz, bu rasm o’zgarishsiz bo’ladi va qiymatlar o’zgarsa ham rasm o’zgarmay qoladi. Tanishning yangi teg <canvas>. Bu teg orqali siz bazadan qiymatlarni olib, diagrammalarni har xil ko’rinishda chiqarishingiz va qiymatga mos keladigan diagramma qismlari uchun alohida skript yozishingiz mumkin bo’ladi.

- HTML5 ning yana bir yutug’i User Interaction nomli qismi. Bu qism orqali saytni interaktiv shaklda yaratish mumkin. Contenteditable atributi orqali saytni qaysi qismini foydalanuvchilar o’zgartirish mumkinligini belgilab qo’yish mumkin. Shablonlar yaratish jarayonida bu atributni ishlatish qulay bo’ladi, ya’ni web texnologiyadan xabarsiz bo’lgan foydalanuvchilar ham vizual tarzda sayt qismlarini o’zgartirish mumkin bo’ladi.

Hozirgi kunga kelib ham(2012 aprel oyi) html5 hali to’liq ishlab chiqilgani yo’q. Lekin ba’zi brauzerlar html5 ing ma’lum bir qismini ishlatishga ruxsat bermoqda.(Misol uchun canvas tegi). Yuqorida ko’rsatilgan teglardan boshqa

ya'na html5 teglari va atributlari mavjud va ular haqida boshqa maqolalarda tanishishingiz mumkin.

HTML-5da XHTMLdagi qat'iy sintaksisdan voz kechilib, HTML-4 dagi teglarni yozishdagi xohlagan registrda yozish, ba'zi teglarni yopmaslik, mohiyatlarda qo'shtirnoqni qo'ymaslik va shu kabi erkinliklar saqlab qolingan.

<!DOCTYPE>

<!DOCTYPE> Brauzerga hujjat tipini ko'rsatish uchun mo'ljallangan. Agar doktayp ko'rsatilmasa, Brauzer o'z rejimini o'zgartiradi. Bunda HTML-5 ning ba'zi imkoniyatlari ishlamaydi va hujjatni aks ettirishda xatoliklar kelib chiqishi mumkin. Doktayp registr tanlamaydi va ikki so'zdan iborat bo'lib, odatda hujjatning birinchi qatorida joylashtiriladi.

HTML-5 da Doktayp quyidagicha e'lon qilinadi:

<!DOCTYPE html>

Hujjat kodining validligini tekshirishda ham, validator Doktaypga asosan tekshirish qoidasini tanlaydi[12].

Eskirgan teg va atributlar

Hujjatni vizual rasmiylashtirish CSS zimmasiga o'tganligi va ba'zi bir teglarga ehtiyoj kamayganligi, yoki o'rniga ma'qulroq teg qabul qilinganligi sababli HTML-5 tarkibiga oldingi standartdagi teglarning bir qismi kiritilmadi.

Bular:

basefont, big, center, font, s, strike, tt, u,

frame, frameset, noframes,

acronym, applet, dir.

Teglardan tashqari ba'zi atributlar ham HTML-5 ga kiritilmadi:

align, link, vlink, alink, text,

bgcolor,

height va width,

scrolling (iframe-dan),

valign,

hspace va vspace,
cellpadding, cellspacing va border (table-dan).

Yangi semantik teglar

Sahifani mantiqiy sohalarga bo'lish uchun, yangi strukturaviy semantik teglar qabul qilindi. Bu teglar hujjat strukturasi yanada tushunarliroq bo'lishiga yordam beradi. Umumiy <div> tegidan farqli ravishda, mantiqiy ma'noga ega bo'lgan bu teglar, hujjat bilan ishlashda orientir olishni osonlashtiradi[19].

<header> - sahifa yoki bo'lim sarlavhasi.

<footer> - sahifa yoki bo'limning yakunlash sohasi (bloki)

<nav> - sahifa yoki bo'limning navigatsiya sohasi

<section> - mantiqiy soha yoki kontentni guruhlash.

<article> - maqola, kontentning mantiqiy yakunlangan blok qismi.

<aside> - ikkinchi darajali yoki qo'shimcha tarzda asosiy maqolaga biriktirilgan kontent.

Misol tariqasida sayt strukturasi:

Web-Forma yangiliklari

HTML5ga elektron pochta manzili, kalendar, ranglar palitrasi, hisoblagich va polzunok kabi yangi forma maydonlari kiritildi.

<input type="email"> - Elektron pochta manzili kiritish maydoni.


Misol:

<label>Elektron manzil

<input type="email" name="email">

</label>

Natija:



Elektron manzil:

<input type="url"> - URL-manzil kiritish maydoni.

<input type="tel"> - Telefon nomeri kiritish maydoni.

<input type="search"> - Qidiruv kalit so'zlari kiritish maydoni.


<input type="range"> - Sudrab yurgizish tugmasi (polzunok).

min va max atributlari yordamida diapazonning quyi va yuqori chegaralari belgilanadi.

Misol:

```
<label for="daraja">Daraja</label>  
<input type="range" min="0" max="10" name="daraja"  
  value="2" id="daraja">
```

Natija:

A screenshot of a web browser showing a range input field. The label 'Daraja' is centered above a horizontal slider. The slider has a green handle positioned at the value 2 on a scale from 0 to 10.

Aktivlashtirib, klaviatura strelkalari bilan yurgizib ko‘ring.

<input type="number"> - Raqamli ma`lumot kiritish maydoni (hisoblagich).

Misol:

```
<label>Dars soatlari<br>  
  <input type="number" name="dars_soatlari" min="0" max="100">  
</label>
```

Natija:

A screenshot of a web browser showing a number input field. The label 'Dars soatlari' is centered above a rectangular text box. The text box has a small blue arrow on its right side, indicating it is a number input.

Maydonga klaviaturadan ham ma`lumot kiritish mumkin. Oldingi misoldagi kabi minimal va maksimal qiymatlarni belgilash mumkin, lekin bu cheklov klaviaturadan kiritishga ta`sir etmaydi.

Shu bilan birga step atributi orqali o‘shish qadamini ham belgilash mumkin. Jimlikdagi qiymati 1 ga teng.

Chrome da aks etishi:


Eslatma: Keltirilgan misollar natijasi ko‘ngildagidek aks ettirilmasa, Brauzeringizni yangilashga urinib ko‘ring. Hozirgi kunda Brauzerlarga yangi imkoniyatlar kiritish ancha tezlashgan. (Bu misolni yozish paytida "Crome"da to‘g‘ri aks etdi, "Mozillada" esa tugmachalar ko‘rinmadi.)

<input type="date"> - Sana kiritish maydoni, date, month va week tiplarida.

Misol:

```
<label>Hujjat sanasi<br>  
  <input type="date" name="date1" value="2013-10-01">  
</label>
```

Natija:

A screenshot of a web form. It features a light blue header with the text 'Hujjat sanasi'. Below the header is a date input field containing the text '2013-10-01'. The input field has a small blue arrow on the right side, indicating it is a date picker.


<input type="datetime"> - Vaqti ham ko'rsatiladigan sana kiritish maydoni, datetime, datetime-local va time tiplarida.

<input type="color"> - Rang tanlash maydoni.

Misol:

```
<label>Rang tanlash<br>  
  <input type="color" name="rang1">  
</label>
```

Natija:

A screenshot of a web form. It features a light blue header with the text 'Rang tanlash'. Below the header is a color input field, which is currently empty and has a small blue square on the right side, indicating it is a color picker.


<input type="text" autofocus> - Formaning aniq bir elementini fokuslash.

Sahifa ochilgan paytda formaning birinchi elementi fokuslanishi, foydalanuvchi tomonidan formaning to'ldirilishini qulaylashtiradi. Sahifada faqat bitta elementga nisbatan autofocus ishlatgan ma'qul, aks holda Brauzer kursorni eng so'ngi avtofokusli maydonga joylashtiradi[17].

Misol:

```
<label>Ismingiz<br>  
  <input type="text" name="ism" autofocus>  
</label>
```

Natija:

A screenshot of a web form. It features a light blue header with the text 'Ismingiz:'. Below the header is a text input field, which is currently empty and has a small blue square on the right side, indicating it is a text input field.

Eslatma: Ushbu sahifa ochilganda va yangilanganda, har safar fokus shu maydonga tushib qolaverganligi sababli, bu misoldagi "autofocus" o‘chirib qo‘yildi.

`<input type="email" placeholder="name@mail.uz">` - forma maydoniga matnni avtomatik biriktirish. Bunda maydonga, uni qanday ma’lumot bilan to‘ldirish yanada tushunarliroq bo‘lishini anglatadigan matn joylashtiriladi.

Misol:

`<label>Ismingiz<br>`

`<input type="text" name="ism" placeholder="Halim">`


`</label>`

`<label>`

`<input type="email" name="email"
placeholder="misqol123@gmail.com">`

`</label>`

Natija:



`<p contenteditable>Matn matn matn</p>` - Kontentni Brauzerda tahrirlash imkoniyatini berish[18].

HTML 5 da cho‘ziluvchan video

Siz HTML 5 cho‘ziluvchan vedioni max-width:100% yordamida oson qilishingiz mumkin. Lekin bu xolda u ishlamaydi. Agar siz iframe yoki boshqa biron saytdan foydalansangiz va saqlab qo‘yish vediosida ishlaydi.

```
video {  
max-width: 100%;  
height: auto;  
}
```

Cho‘ziluvchan ob’ekt va tekislangan video

Aslida bu juda oson siz vedioni bosh blokga qo‘yishingiz, undan keyin shu elimetni (iframe, tekislangan ob’ekt), eniga 100% uzunasiga oxirigacha[19].

CSS

```
.video-container {  
position: relative;  
padding-bottom: 56.25%;  
padding-top: 30px;  
height: 0;  
overflow: hidden;  
}
```

```
.video-container iframe,  
.video-container object,  
.video-container embed {  
position: absolute;  
top: 0;  
left: 0;  
width: 100%;  
height: 100%;  
}
```

HTML

```
<div class="video-container">  
<iframe  
src="http://player.vimeo.com/video/6284199?title=0&byline=0&portrait=0"  
width="800" height="450" frameborder="0"></iframe>  
</div>
```

Qanday qilib enli “**фиксированную**”ni yaratish +cho‘ziluvchan prinsip. Enli vedioni chegaralsh uchun bizga yangi div kerak bo‘ladi. Keyin max-width:100 % yordamida foydalanmiz.

CSS

HTML

```
<div class="video-wrapper">  
<div class="video-container">  
<iframe  
src="http://player.vimeo.com/video/6284199?title=0&byline=0&portrait=0"  
width="800" height="450" frameborder="0"></iframe>  
</div>  
<!-- /video -->  
</div>  
<!-- /video-wrapper -->
```

Kelishuvchilar


Bu javoblar hammasi brauzerlarga to'g'ri keladi (tekshirilganlari Chrome, Safari, Firefox, Internet Explorer, Opera, iPhone va iPad)[18].

III bob. ONLINE PLATFORMALARDAN FOYDALANISH METODIKASI


1. Sololearn platformasining imkoniyatlari

Bu platforma online rejimda ishlashga mo'ljallangan bo'lib, uni ishlatish uchun avval mobil qurilmaga PlayMarketdan o'rnatib olishimiz kerak bo'ladi[21].

O'rnatganimizdan so'ng iilova quyidagi ko'rinishda ishga tushadi:




1-rasm. Sololearn ilova oynasi




2-rasm. HTML kursi oynasi

Ko'rib turganimizdek ilovada bir necha dasturlash tillarini o'ragnish imkoniyati mavjud bo'lib, har biri uchun alohida sahifa ochiladi. Har bir dasturlash tilining sahifasiga kirib, avval mavzularni o'zlashtirishimiz hamda mavzularni o'zlashtirish darajasini belgilash uchun testlarni online rejimda topshirib ko'rishimiz mumkin bo'ladi. Testlarni muvaffaqiyatli topshirib bo'lganimidan so'ng bizga kursni o'lashtirganimizni bildiruvchi sertifikat beriladi. Bu platformada qaysi dasturlash tilini o'rganayotgan bo'lsak, shu dasturlash tilidagi kodlasrni ishga tushirib beruvchi kompyatori mavjud. Demak bu platformani online trenajyor dasturi desak ham mubolag'a bo'lmaydi. Endi ilovaning qolgan imkoniuatlari bilan tanishib chiqamiz. Kursni o'rganish uchun bo'limni tanlasak bizga quyidagi oyna ochiladi(3-rasm).




3-rasm. HTML mavzulari oynasi




4-rasm. Mavzu kontenti oynasi

Bu yerdan mavzuni ichiga kiraganimizda mavzuning mazmunini ko‘rishimiz mumkin(4-rasm).




5-rasm. Mavzudan test oynasi




6-rasm. Test natijasi oynasi

4- rasmdagi mavzuni mazmunini o‘zlashtirib bo‘lganimizdan so‘ng, mavzu bo‘limi bo‘yicha test topshiramiz, hamda testlari tekshiramiz(5,6- rasmlar).

Agar testni noto'g'ri ishlasak bizga qaytadan o'qish imkoni beriladi(7-rasm).



7-rasm. Test natijasi oynasi




8-rasm. Mavzuni o'zlashtirganlik oynasi

Berilgan testlarni muvaffaqiyatli ishlab tugatganimizdan so'ng, kurs bo'yicha keying bo'limlarni o'qish va o'zlashtirish imkoniyati ochiladi(8-rasm). Barcha bo'limlarni tugatganimizdan so'ng kurs bo'yicha sertifikat beriladi(9-rasm).




9-rasm. HTMLdan sertifikat




10-rasm. Kodni ishga tushirish oynasi

Mavzularni o‘qish jarayonida berilgan dastur kodlarini ishga tushirib natijasi ko‘rishimiz mumkin(10-rasm). Kodlarni o‘zgartirib natijasini o‘zimiz istagan ko‘rinishga keltirishimiz mumkin bo‘ladi(11,12-rasm).




11-rasm. HTML kodi oynasi



12-rasm. Kod natijasi oynasi


2. W3schools platformasining imkoniyatlari

Bu platforma ham online rejimda ishlashga mo‘ljallangan bo‘lib, undan foydalanib biz web dasturlashni mustaqil ravishda o‘rganishimiz mumkin. Faqat bu platforma to‘liq ingliz tili muhitida ishlashga mo‘ljallangan(13-rasm)[20].




13-rasm. W3schools platforma oynasi

Bu platformadan foydalanayotgandan foydalanish uchun bosh oynaga tashrif buyurganimizdan so'ng, bizga kerakli bo'lgan kursni tanlaymiz. Kurs oynasida HTMLdam mashqlar va mavzular bo'limi bor. U yerdan biz mashqlar bo'limini tanlaymiz.




14-rasm. HTML kursi oynasi

HTMLda yozilgan tayyor kodni bajarib ko'rish uchun quyidagi oynaga o'tamiz.




15-rasm. HTML mashqlar oynasi


Bu oynadan belgilangan tugmani bosish orqali mashqlarni bajarish va natijani ko'rish oynasiga o'tamiz. U oynadan kodlarni o'zimiz kerakli ko'rinishda o'zgartirib natijani olishimiz mumkin(16-rasm).



Bu yerdan biz kodlarni o'zgartirib, qo'shimcha teglarni kiritib natijani birdaniga qo'shni oynada ko'rishimiz mumkin bo'ladi.



Agar HTMLdan qo'shimcha ma'lumot olmoqchi bo'lsak, quyidagi oynaga o'tamiz.



Bu oynadan HTML bo'yicha qo'shimcha ma'lumotlarni olishimiz mumkin bo'ladi.

19-rasm. HTML teglari oynasi

Endi HTMLdan boshqa kurskarni ham ko'rishimiz mumkin. Masalan, Java Script dasturi misolida qaraymiz.


20-rasm. Java Script kursi oynasi

Bu oynadan ham yuqoridagi kabi, ma'lumotlar va mashqlar oynasidan foydalanishimiz mumkin(21-rasm).




21-rasm. Java Script mashqlar oynasi

Bu oynadan birdaniga HTML va Java Script kodlarini o'zgartirib natijani olishimiz mumkin.



22-rasm. Java Script kodlar va natija oynasi

Yuqoridagi natija oynasidan "Joriy san va vaqtni aniqlash" tugmasini ishga tushirganimizda quyidagicha natija olishimiz mumkin(23-rasm, o'ng tomoni).



23-rasm. Java Script kodlar va natija oynasi

3. Kompyuterda texnika xavfsizligiga rioya qilish qoidalari

Yong'inga qarshi ishlarni tashkil etish. Yong'inlar xalq xo'jaligiga katta moddiy zarar keltiradilar. Yong'inlar bir necha minut yoki soat ichida juda katta miqdordagi xalq boyliklarini yondirib, kulga aylantiradi. Yong'in vaqtida ajralib chiqadigan tutun, karbonad angidrid va boshqa zararli hid va gazlar ko'p miqdorda atmosferaga ko'tarilib, nafas olish uchun zarur bo'lgan havoning tarkibini buzadi. Bundan tashqari, yong'indan ko'tariladigan zararning eng yomoni shuki, unda ko'plab kishilar jarohatlanadi va xatto o'lishi ham mumkin. Bularning hammasi, yong'inga qarshi kurash tadbirlarini, bu vaqtda paydo bo'ladigan ishlarni xavfsiz bajarish usullari va mehnat muxofazasi bilan birgalikda o'rganishga majbur qiladi. Hozirgi paytda sanoat korxonalarida yonish xavfining kamayishi borasida birmuncha ishlar amalga oshirilgan yong'in chiqish xavfi kamaytirilgan va butunlay xavfsiz ishlaydigan elektr uskunalari qo'llanilmoqda. Sanoat korxonalari bino va inshootlari tarkibidan yonuvchi qurilish materiallarini siqib chiqarilmoqda. O't o'chirishning mexanizasiyalashgan va avtomatlashgan sistemalari tobora kengroq qo'llanilmoqda[19].

Lekin, yong'in chiqishining oldini olishda, o't o'chirishda asosiy ma'suliyat kishilar zimmasiga tushishini va ularning yong'inni o'chirish texnikasining barcha talablarini to'liq bajarishga bog'liq ekanligini unutmasligimiz kerak. Sanoat korxonalarida bu tadbirlar tartibli ravishda, yong'in texnikasi haqidagi nizom, yong'in xavfsizligi qoidalari, yo'riqnoma va boshqa xujjatlar asosida olib borilishi kerak.

Respublikamizning har bir fuqorosi jamoat va davlat mulkini ko'z qorachig'iday saqlashi va asrab avaylashi, uni boyitishi haqida qayg'urishi kerak. Huning uchun sanoat korxonalarida yong'inning oldini olish va o't o'chirish tadbirlari keng jamoatchilikka suyanan holda, sexlardagi har bir ishchining ishtirokida olib boriladi.

Yong'in muxofazasini tashkil qilish kasbiy va ixtiyoriy turlarga bo'linadi[19].

Kasbiy yong'in muxofazasi o'z navbatida harbiylahstirilgan (yirik shahar va muhim obyektlarga xizmat ko'rsatadi), harbiylashtirilmagan (tuman markazlari va yirik sanoat aoykklariga xizmat ko'rsatadi) va tarmoq(ayrim birlashma va korxonalarga xizmat ko'rsatadi) turlarga bo'linadi. Yirik sanoat sanoat korxonalarida kasbiy yong'in qismlari tashkil qilinadi. SnIP 11-8980 "sanoat korxonalarining bosh rejalari" ga asosan ishlab chiqarishning yong'in xavfi bo'yicha A.B va V toifalari uchun kasbiy yong'in qismlarining xizmat ko'rsatish radiusi 2 km dan oshmasligi kerak. Bu qismlar odatda korxona hududidan tashqariga joylashtiriladi.

Yong'in xavfi kam bo'lgan hamda kichikroq korxona va muassalarida yong'in muhofazasi va ob'ektni qo'riqlash xizmati birgalikda qo'shib olib boriladi.

Sanoat korxonalarida yong'in muhofazasini tashkil qilish va yong'in chiqishini ogohlantirish; o't o'chirish texnikasi va qurollarini aloqa va o'chirish vositalarini jangovar holatda saqlash, yong'in chiqqan taqdirda ularda faol qatnashish, xalq mulkini asrab avaylash saqlash borasida targ'ibot va tashviqot ishlarini olib borishni taqoza qiladi.

Korxonalarda yong'in muhofazasining qanday strukturasi mavjud bo'lishidan qat'iy nazar, ko'ngilli o't o'chirish drujinalari tuzilishi kerak.

Yong'in va portlashlar hamon xalq xo'jaligiga katta ziyon yetkazmoqda, kishilarning mayib bo'lishiga xatto halok bo'lishiga sabab bo'lmoqda. Shu sababli yong'in xavfsizligi tadbirlari ikki asosiy vazifani hal qilishga - kishilar hayoti va sog'lig'ini saqlab qolishga hamda moddiy boyliklarini o'tdan himoyalashga qaratilmog'i zarur.

Yong'in xavfsizligi qoidalariga amal qilishni Dav yong'innazorat kuzatib turadi, sexlar, laboratoriyalar, bo'limlar, omborxonalar, ustaxonalar va boshqa bo'limlardagi yong'in xavfsizligi uchun javobgarlik esa ularning raxbarlari yoki shu raxbarlar vazifasini bajarib turgan kishilar zimmasiga yuklatiladi.

O'zbekiston Respublikasida shaharlarimizning qishloqlardagi aholi zich yashaydigan joylar va xalq xo'jaligi ob'ektlarining yong'in muhofazasini

mustahkamlash uchun yong‘inga qarshi kurash reja asosida olib boriladi va shu to‘g‘risida doim g‘amxo‘rlik qilib kelinadi. Ana shu yong‘in muhofazasi ioshining ikki asosiy yo‘nalishi bor:

- ❖ birinchidan, bu- yong‘inning oldini olishga qaratilgan ilmiy-texnika va tashkiliy tadbirlarning rejali majmui:

- ❖ ikkinchidan, bu- ob‘ektlar, shaharlarda va qishloqlardagi aholi zich yashaydigan joylarda yong‘inni o‘chirishni tashkil qilish.

O‘zbekiston Ichki ishlar vazirligi yong‘in muhofazasi Bosh boshqarmaning vazifasi davlat mulkini, fuqarolarning shxsiy mulkini yong‘indan saqlashdan iborat, shu bilan birga yong‘in nazorati tashkilotlari tashkiliy, nazorat va ma‘muriy ishlarni amalga oshiradi. Ularning vazifalariga quyidagilar kiradi:

- ❖ hamma idoralar, korxonalar va alohida shaxslar uchun majburiy bo‘lgan yong‘in muhofazasi doir qoidalar, me‘yorlar, yo‘riqnomalar ishlab chiqish va ularni chop qilish;

- ❖ sanoat, fuqaro binolari va inshootlarini , aholi punktlarini loyihalash, qurishda yong‘in xavfsizligi qoidalari va me‘yorlarning bajarilishini tekshirish;

- ❖ hamma tashkilotlar, muassasalar, korxonalardagi o‘t o‘chirish bo‘linmalarining shayliligini va o‘t o‘chirish vositalarining sozligini qattiq nazorat qilish hamda tekshirish;

- ❖ O‘zbekiston Respublikasi yong‘in nazorati tashkilotlari o‘z vazifalarini muvaffaqiyatli bajarishlari uchun ularga quyidagi huquqlar berilgan:

- ❖ yong‘in xavfsizligi jihatidan qay ahvoldaligini aniqlash maqsadida barcha sanoat binolari hamda inshootlari, omborxonalar va uylarni tekshirish;

- ❖ korxonalar ma‘muriyati va alohida shaxslardan obektlardan yong‘in xavfsizligi nuqtai nazaridan qay ahvoldaligini aniqlash uchun zarur bo‘lgan ma‘lumot hamda hujjatlarni taqdim etishni talab qilish

- ❖ yong‘in xavfsizligi qoidalari buzilganligini aniqlanganda korxona raxbarlariga ana shu buzilishlarni bartaraf etish yuzasidan majburiy farmoyishlar

berish va buning uchun zarur muddatlarni belgilash- yong'in va portlash xavfini yuzaga keltirish xavfini yuzaga keltiruvchi qoida buzilishlarini aniqlaganda ana shu buzilishlar bartaraf etilgunga qadar korxonaning ishini butunlay yoki qisman to'xtatib qo'yish;

❖ yong'in xavfsizligi qoidalarining buzilishi yoki bajarilmasligida aybdor bo'lgan kishilarni ma'muriy yoxud jinoiy javobgarlikka tortish;

Ishchi xizmatchilar o'z ish o'rnidagi yoki ular o'zi ishlaydigan bo'linmadagi yong'in xavfsizligi talablarini yaxshi bilishlari va ularga qat'iy amal qilishlari, o't o'chirish vositalaridan foydalana olishlari, mehnat hamda texnologiya intizomiga qat'iy rioya qilishlari, yong'in ham,da portlash jihatidan xavfli modda va ashyolarni ishlatishni bilishlari zarur [19].

Korxona, muassasa va tashkilotlarda yong'in xavfsizligini ta'minlash ishini tashkil qilish.

Ishchilar xizmatchilar va muhandis-texnik xodimlarning ko'pchiligi jalb etilgandagina korxona, muassasa hamda tashkilotlarda yong'inga qarshi muvaffaqiyatli kurash olib boorish mumkin. Buning uchun har bir ob'ektda yong'in-texnik komissiyasi tuziladi. Komissiyaga bosh muhandis, texnik raxbar yoki raxbarning birinchi o'rinbosari boshchilik qiladi, ularning vazifasi quyidagilardan iborat;

❖ yong'inning oldini olish qoidalarining buzilishlarini va yong'in chiqishga olib keluvchi kamchiliklarni aniqlash va ularni bartaraf etish tadbirlarini ishlab chiqish;

❖ ob'ektiv yong'inning oldini olish tartibini ishlab chiqish va ularni o'tkazishda qatnashish;

❖ ishchi- xizmatchilarning va muhandis-texnik xodimlar o'rtasida yong'inning oldini olish tartibi hamda qoidalari bo'yicha ommaviy tushuntirish ishlartini olib boorish.

Bu vazifalarni bajarish uchun yong'in texnik-komissiyasi ishlab chiqarish xonalari, elektr jihozlari, shamollatish, isitish sistemalari va shu kabilarni ko'zdan kechirib, qoida buzilishlarini aniqlaydi hamda ularni bartaraf etish muddatlarini

belgilaydi: ishlovchilar o'rtasida yong'inning oldini mavzularidan suhbatlar, leksiylar o'tkaziladi: ratsionalizatorlar haqmda ixtirochilar uchun mavzular ishlab chiqishda qatnashadi; sexlar, bo'limlar, omborxonalar, labaratoriyalar va xakozolarning yong'inga qarshi ahvol;ini tekshirishga keng jamoatchilikni jalb etadi.

Sanoat korxonalarida yong'in muhofazasiga quyidagi vazifalar yuklatiladi:

- ❖ har kuni yong'inni oldini olishni amalga oshirishi;
- ❖ yong'in chiqishiga yo'l qo'ymaydigan tadbirlarni ishlab chiqish;
- ❖ ishchi-xizmatchilar, muhandis-texnik xodimlarga yong'inga qarshi kurash yuzasidan yo'l -yo'riqlar brish va ular bilan mashg'ulotlar o'tkazish;
- ❖ hamma o't o'chirish sistemalari va qurilmalari hamda yong'in, aloqa va signalizatsiya vositalarining ahvolini nazorat qilish;
- ❖ qo'riqlanayotgan ob'ektdagi yonayotgan narsalar va yong'inni o'chirish.

Yonishning fizik-kimyoviy asoslari. Yonish deb, yonuvchi modda biulan havodagi kislarodning o'zaro ta'siri natijasida juda tez kechuvchi va ko'p miqdorda issiqlik miqdori ajralib chiquvchi kimyoviy reaksiyaga aytiladi. Ko'p hollarda yonish yonuvchi modda zarrachalarining nurlanishi bilan birga kechadi. Yonish hosil bo'lishi va davom etishi uchun yonuvchi modda (qattiq , suyuq yoki gazsimon), oksidlovchi modda (oddiy sharoitda oksidlovchi modda alanga va cho'g'langan narsa) mavjud bo'lishi kerak. Shuni aytish kerakki, havodagi kislarod miqdori 15% dan yuqori bo'lgandagina oksidlovchi vazifasini bajara oladi, undan past konsentratsiyada esa yonish mavjud bo'la olmaydi. Bundan tashqari oksidlovchi modda vazifasining tegishli sharoitlarda xlor, brom, kaliy va boshqa moddalar ham o'tashi mumkin.

Xavfliligi bo'yicha barchga modda va ashyolarni quyidagi turlarga bo'lish mumkin: yonmaydigan moddalar, yonish xavfi mavjud bo'lgan moddalar, yonish va portlash xavfi mavjud hamda portlash xavfi mavjud moddalar.

Yonmaydigan modda va ashyolar – yonish yoki yong'inni uzatish xususiyatlari yo'q narsalardir. Masalan , g'isht metal va boshqalar.

Yonish xavfi mavjud modda va ashyolar havoda yonish va yong‘inni uzata olish xususiyatiga egadirlar. Masalan, yog‘och, qog‘oz, paxta tolasi, mazut, portlash xossasiga ega bo‘lmagan changlar.

Yonish va portlash xavfi mavjud modda va ashyolar, qattiq yoki suyuq yonuvchi moddalar bilan birikkanda bir zumda alangalanib ketish xossasiga ega. Bunday moddalarga vodorod angidridi, azot kislotasi va boshqalar, hamda yonuvchi moddalr bilan aralashganda o‘zidan kislarod chiqaruvchi, kislota ta’sirida, qizdirilganda yoki mexanik ta’sir ostida portlovchi moddalar kiradi. Masalan, paxta change bilan silitra aralashganda shu hol ro‘y berish mumkin, shu bilan birga bunday narsalarga havoda tarqalgan holda portlovchi aralashmalar hosil qiluvchi changlar ham mansubdir. Masalan, lub va kenaf tolalari changlari. Yonish va portlash xavfi mavjud moddalarga o‘zaro yonmaydigan lekin suv bilan aralashganda parchalanib , gaz ajratib chiqaruvchi va bu gaz havo bilan birikma hosil qiluvchi moddalar ham kiradi(kalsiy karbit).

Portlovchi narsa va moddalr havo bilan aralashib, portlovchi birikmalar (yonuvchi gaz, vodorod, atsetelin) hosil qiladilar. Portlash xavfi mavjud moddalarga yonuvchi gazlar bilan aralashganda portlash xavfini vujudga keltiradigan yonmaydigan gazlar ham kiradi(kislarod yonuvchi gaz bilan aralashganda portlashga olib keladi). Ayrim holda yonmaydigan va yonishni ta’minlay olmaydigan portlovchi gazlar ham bo‘lishi mumkin. Masalan, balonlarda siqilgan holda saqlanuvchi karbonad angidrid gazi. Portlovchi moddalarga, shuningdek havo bilan aralashganda holidagi neorgfanik moddalar ham(alyuminiy, magniy va boshqa moddalar kukunlari) kiradi [19].

Yonish fazalari va portlash chegaralari. Yonish faqat malum harorat sharoitidagina mavjud bo‘lishi mumkin. Barcha yonuvchi moddalarning tarkibida uglerod va vodorod mavjuddir. Issiqlik ta’siri ostida yonuvchi moddalar parchalanib yuqoridagi gazlar ajralib chiqib, havodagi kislorod bilan birikib , alanga hosil qiladi.

Yonish fazalarining quyidagi xillari aniqlangan.

1. Chaqnash. Agar sekin-asta qizdirilayotgan yonuvchi suyuqlikka vaqti vaqti bilan tashqaridan alanga ta'sir qildirsak, ma'lum bir haroratga yetganda, undan ajralib chiqayotgan gazsimon mahsulot chaqnaydi va shu zahatiyoq o'chib qoladi. Suyuqlikning ana shu paytdagi harorati chaqnash harorati deyiladi. Chaqnagan gazlarning tez o'chib qolishining sababi, bu haroratda suyuqlikdan ajralib chiqayotgan gazlar alangani davom ettirish uchun yetarli emasligidir.

Chaqnash harorati moddalarning yong'in jihatidan xavfliligini aniqlashda katta ahamiyatga molikdir. Ayrim moddalardan ajralib chiquvchi bug' va gazlar ko'p miqdorda yig'ilishi natijasida ochiq alanga bilan birikib kuchli portlash paydo qilishi mumkin.

2. Alangalanish. Suyuq, yonuvchi moddalarni qizdirish chaqnash haroratidan yuqorida ham davom ettirilsa, uning bug'lanishi jadallashadi va shunday bir vaqt keladiki, unga alanga yaqinlashtirilsa, chiqayotgan bug'lar chaqnaydi va yonishda davom etadi. Suyuqlikning shu holatdagi harorati alangalanish harorati deb ataladi.

3. O'z-o'zidan alangalanish. Agar yonuvchi suyuqlikni alangalanish haroratidan yuqori bo'lgan holatda ham qizdirish davom ettirilsa-yu, lekin ochiq alanga yaqinlashtirilmasa, ma'lum bir vaqtda ajralib chiqayotgan bug'lar o'z-o'zidan alangalanib ketadi. Yonuvchi suyuqlikning ana shu holatdagi harorati o'z-o'zidan alangalanish harorati deyiladi.

4. O'z-o'zidan yonib ketish. Ayrim yonuvchi qattiq moddalarni saqlash noto'g'ri tashkil etilgan hollarda o'z-o'zidan yonib ketishi mumkin. Masalan, nam holda g'aramlangan poxol, paxta, toshko'mir, moy artilgan latta va boshqalar. Bu jarayon o'z-o'zidan yonish harorati ma'lum haroratdagina bo'lishi mumkin. Qattiq moddalar yonayotganda, yonayotgan qismlariga yondosh qismlarning qizishi va ulardan o'z navbatida yonuvchi gazlar ajralib chiqishi va ularning ham yona boshlashi natijasida uzluksiz zanjir reaksiyasi kechadi. Bu biror bir to'suvchi omilga uchramasa yonuvchi modda yonib tamom bo'lguncha davom etadi.

Yonuvchi suyuq moddalarning yonishi faqat yuzlari ochiq bo'lgan holatdagina, ya'ni havo bilan tutash bo'lgan yuzalardagina yuz berishi mumkin. Bunda suyuqlik yuzasidagi alanga pastki qatlamlarni qizdiradi va yonuvchi bug'larning yangi-yangilarini chiqaradi va ular ham yona boshlaydi, shunday qilib bu yerda ham zanjir reaksiyasi kechadi.

Yonuvchi suyuq moddalarning chaqnash harorati 450 C ga teng yoki undan kichik bo'lsa, bunday moddalar yengil yonuvchi suyuqliklar deyiladi. Bylarga benzin, serouglerod, spirtlar va boshqalar misol bo'la oladi. Chaqnash harorati 450S dan yuqori bo'lganlari esa yonuvchi suyuqliklar deyiladi. Qurilish meyorlari va qoidalarida keltirilishi bo'yicha yong'indan muhofaza qilish ilmiy tekshirish instituting tavsiyasiga binoan yengil yonuvchi suyuqliklarga chaqnash harorati 610 C ga teng va undan past bo'lganlari, yonuvchi suyuqliklarga esa 610 C dan yuqorilarini kiritish belgilangan.

Gazlarda esa, gazning har bir molekulasida kislarodning molekullari bilan bevosita kontaktda bo'lishi mumkinligi va ular bir vaqtning o'zida oksidlanish jarayoniga tayyor bo'lganligi uchun, yonish jarayoni katta tezlikda kechadi. Yonuvchi modda bo'ylab alanganing tarqalish tezligi sekundiga bir necha metrni tashkil etsa, yonish bir necha yuz metrni tashkil etsa portlash, bir necha kilometrni tashkil etsa detonatsiya deb ataladi.

Gaz va bug'larning havo bilan aralashmasining yonish va portlash xavfi, alanganing tarqalish haroratidan tashqari ularning havodagi konsentratsiyasi chegarasi bilan xarakterlanadi.

Portlashning konsentratsiya chegarasi deb yopiq tigel ichida yonuvchi gaz va bug'larning havodagi miqdori tashqi alanga ta'siri ostida alangalanib keta oladigan miqdorga aytiladi[19].

XULOSA

Kasbiy malakalarni shakllantirish va rivojlantirishning eng samarali usullaridan biri intellektual kompyuter trenajyorlari hamda avtomatlashtirilgan ta'lim tizimini qullab o'qitishdir. Bu tizimlar samarali axborotlarni qidirish, yig'ish va saqlash mumkin bo'lgan tuzilmalarni tashkil qiladi, ular ta'lim oluvchi bilan mashinaning o'zaro ta'sirini tabiiy tilda shakllantirib, o'qitish uchun sun'iy intellekt imkoniyatlaridan foydalangan holda yuqori mantiqiy imkoniyatlarni ichiga olgan ta'lim dasturlari sinfidan iborat.

Ushbu bitiruv malakaviy ishda veb dasturlashni online rejimda o'rganish uchun mo'ljallangan tizimlari tahlil qilindi. Bunday tizimlar hozirgi kunda juda mashhur o'qitish vositasiga aylanib bormoqda. Demak bunday platformalarni qo'llashni hamma ham bilavermaydi yoki bo'lmasa mavjud platformani barcha imkoniyatlarini bilmasligi mumkin. Bitiruv malakaviy ishni bajarish jarayonida ana shu muammolarni hisobga olgan holda online o'qituvchi platformalardan foydaanish metodikasi ishlab chiqildi.

Veb dasturlashni online o'rganishga mo'ljallangan tizimlarni tahlil qilishda quyidagi vazifalar bajarildi:

- Veb dasturlashni o'rgatuvchi resurslar tahlil qilindi;
- Barcha veb dasturlash tillarini bitta platformaga jamlagan resurslar saralab olindi;
- Saralab olingan resurslar ichidan eng ko'p funksionallari ajratib olindi;
- Bular Sololaern va w3school ilovalari bo'lib, ular kompyuter va mobil qurilmaga o'rnatilib foydalanib ko'rildi;
- Tanlab olingan o'rgatuvchi ilovalarning barcha imkoniyatlari ochib berildi;
- Platformalarda mavjud trenajyor dasturlari ham ishlatib ko'rildi;
- Natijalar umulashtirilib qiyosiy tahlil qilindi.

O'rganilgan natijalaridan veb dasturlashni mustaqil o'rganuvchilar foydalanishlari mumkin.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Ўзбекистон Республикасининг «Таълим тўғрисида»ги Қонун. – Т.: «Ўзбекистон», 1997.
2. Ўзбекистон Республикасининг «Кадрлар тайёрлаш миллий дастури». – Т.: «Ўзбекистон», 1997.
3. Мигранова Э.А., Гулямов Ш.М. “Компьютерли тренажёр ўргатувчи тизимлар”. Монография. “Адабиёт учкунлари”, Тошкент 2014.
4. Мавлонова Р. ва бошқ. Педагогика. - Тошкент, «Ўқитувчи», 2001.
5. Исмаилова З. Педагогикадан амалий машғулотлар - Тошкент, «Фан», 2001.
6. Общая педагогика. Под ред. В.А.Сластенина. В 2 ч. - Москва, «Владос», 2003.
7. Трайнев В.А., Гуркин В., Трайнев О.В. Дистанционное обучение и его развитие - Москва, 2006. - 196 с.
8. Основы деятельности тьютора в системе дистанционного образования, Издательство: Дрофа, 2007 г. - 592 с.
9. Гаевская Е.Г. Система дистанционного обучения MOODLE: методические указания для практических занятий: Учебное пособие. — СПб.: Ф-т филологии и искусств СПбГУ, 2007. — 26 с.
10. Максим Кузнецов, Игорь Симдянов, Сергей Голышев. PHP 5 на примерах. Серия: На примерах. Издательство: БХВ-Петербург, 2005 г., 576 стр.
11. Леон Аткинсон, Зеев Сураски PHP 5. Библиотека профессионала., Core PHP Programming., Серия: Библиотека профессионала., Издательство: Вильямс, 2005 г., 944 стр.
12. Негрино JavaScript для начинающих / Негрино, Том. - М.: Гостехиздат, 2007. - 544 с.
13. Нолан, Х. Как создать превосходный сайт в Microsoft Expression Web 2 и CSS / Х. Нолан. - М.: Книга по Требованию, 2009. - 260 с.

14. Петюшкин, А. HTML экспресс-курс / А. Петюшкин. - М.: СПб: БХВ-Петербург, 2004. - 250 с.

15. Поломошнов, Олег Быстро и легко создаем, программируем и раскрываем Web-сайт / Олег Поломошнов. - М.: Эксмо, 2011. - 352 с.

16. Дмитриу Котеров, Алексеу Костарев. PHP 5., Серия: В подлиннике Издательство: БХВ-Петербург, 2005 г., 1120 стр.

17. Максим Кузнецов, Игорь Симдянов, Сергеу Голышев. PHP 5. Практика создания Web-саутов (+ CD-ROM). Серия: Pro. Профессиональное программирование. Издательство: БХВ-Петербург, 2005 г., 48 стр.

18. Дмитриу Котеров, Алексеу Костарев., PHP 5. Наиболее полное руководство Серия: В подлиннике Издательство: БХВ-Петербург, 2005 г., 1120 стр.

19. Hayot faoliyatu xavfsizligi. A. Qudratov, T. G'aniyev va b., Toshkent, Aloqachi, 2005 y.





20. www.w3schools.com

21. www.sololearn.com

22. webformyself.com

ILOVA

1-Ilova. Sololearn ilovasini yuklab olish va o'rnatish



2-Ilova. Sololearn ilovasini tugatganligi to'g'risida sertifikat

CERTIFICATE

SOLOLEARN

Issued 13 October, 2018

This is to certify that

Yoqubov Sherzodxon

has successfully completed the

HTML Fundamentals course



A blue ink handwritten signature.

Yeva Hyusyan
Chief Executive Officer

Certificate #1014-11217591

CERTIFICATE

SOLOLEARN

Issued 26 December, 2018

This is to certify that

Yoqubov Sherzodxon

has successfully completed the

PHP Tutorial course



A blue ink handwritten signature.

Yeva Hyusyan
Chief Executive Officer

Certificate #1059-11217591

3-Ilava. W3schools ilovasini ishlatish

w3schools.com

THE WORLD'S LARGEST WEB

HTML CSS JAVASCRIPT SQL PHP BOOTSTRAP HOW TO PYTHON MORE REFERENCES EXE

CSS Tutorial

CSS HOME

CSS Introduction
CSS Syntax
CSS How To
CSS Colors
CSS Backgrounds
CSS Borders
CSS Margins
CSS Padding
CSS Height/Width
CSS Box Model
CSS Outline
CSS Text
CSS Fonts
CSS Icons
CSS Links
CSS Lists

Meest Asia

ДОСТАВКА ИЗ КИТАЯ И США
В УЗБЕКИСТАН

Подробнее



CSS Tutorial

< Home

Next >

CSS is a language that describes the style of an HTML document.

CSS describes how HTML elements should be displayed.

This tutorial will teach you CSS from basic to advanced.

Examples in Each Chapter

Ожидание sync-eu.connectad.io...

undreds of CSS examples.

HTML CSS JAVASCRIPT SQL PHP BOOTSTRAP HOW TO PYTHON MORE REFERENCES EXE

CSS Tutorial

CSS HOME

CSS Introduction
CSS Syntax
CSS How To
CSS Colors
CSS Backgrounds
CSS Borders
CSS Margins
CSS Padding
CSS Height/Width
CSS Box Model
CSS Outline
CSS Text
CSS Fonts
CSS Icons
CSS Links
CSS Lists
CSS Tables
CSS Display
CSS Media

CSS Example

```
body {  
  background-color: lightblue;  
}  
  
h1 {  
  color: white;  
  text-align: center;  
}  
  
p {  
  font-family: verdana;  
  font-size: 20px;  
}
```

Try it Yourself >

Click on the "Try it Yourself" button to see how it works.

Run > Result Si

```
<head>  
<style>  
body {  
  background-color: lightblue;  
}  
  
h1 {  
  color: white;  
  text-align: center;  
}  
  
p {  
  font-family: verdana;  
  font-size: 20px;  
}  
</style>  
</head>  
<body>  
  
<h1>Mening birinchi CSS misolim</h1>  
<p>Yoqubov Sherzodxon.</p>  
</body>  
</html>
```

Mening birinchi CSS misolim
Yoqubov Sherzodxon.

